




FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
MINTAQAVIY MARKAZI



“O'ZBEKISTON VA JAHON
HAMJAMIYATI XALQARO
REYTING VA
INDEKSLARDAGI O'RNI
HAMDA NUFUZINI ORTIB
BORISHI”



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**FARGONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**“O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI
XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI O'RNI
HAMDA NUFUZINI ORTIB BORISHI”**

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

O‘zbekistonning eng yangi tarixi

FARGONA – 2025

Modulning ishchi dasturi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27 dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan oliy ta’lim muassasalari rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlari o‘quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **B.Usmonov** – tarix fanlari doktori (DcS), professor.

Taqrizchi: **B.Iminov** – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

*Ishchi o‘quv dasturi FarDU Ilmiy Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan
(2024 yil 27 dekabrdagi 5- sonli bayonnoma).*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	15
III. NAZARIY MATERIALLAR	26
IV. AMALIY MASHG`ULOT MATERIALLARI	75
V. GLOSSARIY	85
VI. ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	90

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, 2017-yil 27-iyuldagи “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2019-yil 3-maydagи “Ma’naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son va 2021-yil 26-martdagи “Ma’naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarorlari, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentyabrdagi “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 736-son va 2019-yil 23-sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son qarorilarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonlarida ma’naviy-ma'rifiy muhit barqarorligini ta'minlash, tinglovchilarning davlat va jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligini va daxldorlik tuyg‘ularini oshirish, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishni maqsad qiladi.

Modulning vazifalari

Tinglovchilarda O‘zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishi haqidagi bilimlarini takomillashtirish, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma'rifiy islohotlar bilan yaqindan tanishtirish va sohadagi muammolarni

aniqlash, tahlil etish va baholash bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish, shuningdek O‘zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishi haqidagi belgilangan asosiy maqsad va yo‘nalishlar to‘g‘risida chuqur bilim olishni ta’minalash, davlat va jamiyat hayotida, shuningdek yoshlarni tarbiyalashda ma’naviyat va axloq masalalarining ahamiyatini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil etish va baholash, bu borada zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni yanada shakllantirish modulining maqsad va vazifalarini tashkil etadi.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

O‘zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishi modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

O‘zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va ularga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni;

O‘zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy usul va vositalarini;

O‘zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishiga belgilangan vazifalarni ijro etish jarayonida amalga oshirilayotgan islohot va yangiliklarni, bu to‘g‘risidagi muhim ma’lumotlarni **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

O‘zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishi sohasidagi muammo va masalalarni tahlil etish;

- ta’lim muassasalarida ta’lim sub’ektlarining ma’naviy axloqi va jamiyatning ma’naviy asoslari bilan bog‘liq joriy muammolarni tahlil etish va baholash;

O‘zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishi;

- bilan bog‘liq ijtimoiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy innovatsion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga faol tadbiq etish;

- fanlarni o‘qitishda ta’lim berishning modulli tizimidan kengroq foydalanish;

O‘zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishi taalluqli bo‘lgan tadqiqotlarni aniqlash va tahlil qilish;

- fanni o‘qitishda amaliyat materiallaridan kengroq foydalangan holda tahliliy fikrlash;

- fan doirasida taqdimotlar yaratish, mustaqil va masofaviy ta’limni tashkil etishda video ma’ruzalarni tayyorlash va ulardan foydalanish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

O‘zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishi tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash;

O‘zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishi bilan bog‘liq tegishli amaliyat materiallarini o‘rganish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlar asosida tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-siyosiy jihatdan yanada rivojlantirish bilan bog‘liq turli mamlakatlarda qabul qilingan rivojlanish dasturlari, yo‘l xarita va dasturlar, istiqbolli rejalgarda oid xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda ularni milliy qonunchilik va amaliyat bilan qiyosiy tahlil qila olish **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.

Tinglovchi:

O‘zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishi:

- shuningdek ta’limning boshqa ustuvor sohalari bo‘yicha tinglovchilarni

fundamental, shuningdek amaliy kasbiy tayyorgarligini ta'minlash;

- o'quv jarayoni nazariy tayyorgarligini amaliyat bilan uzviy bog'liqligini, tinglovchilarda tahliliy fikrlashni shakllantirishni, yangi bilimlarni mustaqil egallash va qo'llashni ta'minlaydigan o'qitishning zamonaviy shakl va metodlari, pedagogik, axborot-kommunikatsiya, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish;

O'zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o'rni hamda nufuzini ortib borishi o'quv jarayoniga ilmiy ishlanmalar natijalarini samarali joriy etish, fanni samarali o'qitishga qaratilgan turli metod va usullarini qo'llash **kompetensiyalarini** egallashi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar:

O'zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o'rni hamda nufuzini ortib borishi va jamiyatning ma'naviy asoslari moduli ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

O'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar munozara va debat, ilmiy baxs va muhokama shaklida, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruuhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llagan holda, zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalar asosida tashkil etiladi.

Modul doirasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar nazarda tutilib, bu borada davlat va jamiyat hayotida katta amaliy ish tajribasiga, obro'-e'tibor va nufuzga, yuksak lavozim va martabaga, ilmiy yutuq va unvonlarga ega bo'lgan shaxslar, ilmiy jamoatchilik va akademik soha vakillari, davlat boshqaruvi organlari xodimlari va boshqa mashhur shaxslar bilan adabiy va ma'naviy-ma'rifiy o'chrashuvlar tashkil etiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

O‘zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishi o‘quv rejadagi “Oliy ta’limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar” va “Kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” va boshqa modullar bilan o‘zaro bog‘liq hamda uslubiy jihatdan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning davlat va jamiyat hayotida olib borilayotgan islohotlardan xabardorlik va ularga daxldorlik tuyg‘ularini oshirishga, shuningdek jamiyatning ma’naviy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston va jahon hamjamiyati xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni hamda nufuzini ortib borishi asosiy yo‘nalish va maqsadlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi hamda “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasiga doir kasbiy bilim va malakalarga ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat				Mustaqil ta’lim	
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi		jumladan		
			Jami	Nazariy	Amaliy mashg’ulot		
1.	O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi.	4	4	2	2		
2	O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi.	4	4	2	2		
3.	“O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish” borasidagi davlat siyosati.	2	2	2			
4.	Sohaga oid huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar	2	2		2		
5.	O‘zbekiston respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha samaradorlikning eng muhim ko‘satkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar.	4	4	2	2		
6.	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi va Inson kamoloti, Huquq ustuvorligi, Jahon mamlakatlari demokratiyasi, Matbuot erkinligi indekslari O‘zbekistonning o’rni.	4	2		2		
Jami		18	18	8	10		

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi (2 soat).

Reja:

1.O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi.

2.O‘zbekiston Respublikasining BMTga a’zo bo‘lishi va jahon hamjamiatidagi o‘ziga xos o‘rni.

3.O‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va mavqeyining oshib borishi.

4.O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari. O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari.

5.Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi. O‘zbekiston tashqi siyosatida Rossiya, AQSH, Xitoy mamlakatlarining o‘rni.

2-mavzu: O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi. (2 soat).

Reja:

1.Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O‘zbekiston Respublikasining faolligi.

2.O‘zbekistonning SHHT bilan aloqalari. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari bilan yangi strategik sherikchilik shartnomalarining imzolanishi.

3. Turkiy davlatlar tashkiloti va uning mintaqadagi o‘rni va ahamiyati.

3-mavzu: “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishslashning yangi mexanizmini joriy etish” borasidagi davlat siyosati(2 soat).

Reja:

1.“O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishslashning yangi mexanizmini joriy etish” borasidagi davlat siyosati,

2.Huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo‘nalishdagи ishlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar.

4-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha samaradorlikning eng muhim ko‘satkichlarini oshirish borasida olib borilaётган чора-tadbirlar (2 soat).

Reja:

1.Ushbu ko‘rsatkichlarni oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasida quyidagi suveren indeks va indikatorlar tizimiga integrasiyalashuv jarayonlari jadallashtirilmoqda: “Biznes yuritish” indeksi, Boshqaruv sifati indikatorlari, Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi, “Korrupsiyani qabul qilish” indeksi, “Logistika samaradorligi”indeksi, Jahon bankining Statistik salohiyat indeksi, Iqtisodiy erkinlik indeksi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiёт tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi, Inson kamoloti indeksi, Huquq ustuvorligi indeksi, Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi, Matbuot erkinligi indeksi va boshqalar.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot: O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi.

Reja:

1.O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi.

2.O‘zbekiston Respublikasining BMTga a’zo bo‘lishi va jahon hamjamiyatidagi o‘ziga xos o‘rni.

3.O‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va mavqeining oshib borishi.

4.O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari. O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari.

5.Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiysi. O‘zbekiston tashqi siyosatida Rossiya, AQSh, Xitoy mamlakatlarining o‘rni.

2-amaliy mashg‘ulot:O‘zbekistonning geosiyosiy va geo-iqtisodiy o‘rni.

Reja:

1.Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O‘zbekiston Respublikasining faolligi.

2.O‘zbekistonning SHHT bilan aloqalari. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari bilan yangi strategik sherikchilik shartnomalarining imzolanishi.

3. Turkiy davlatlar tashkiloti va uning mintaqadagi o‘rni va ahamiyati.

3-amaliy mashg‘ulot: Sohaga oid huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar.

Reja:

1.«O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishslashning yangi mexanizmini joriy etish» borasidagi davlat siyosati.

2. Huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi.

3. Mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar.

4-amaliy mashg‘ulot: O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha samaradorlikning eng muhim ko‘satkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar.

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasida quyidagi suveren indeks va indikatorlar tizimiga integrasiyalashuv jarayonlari jadallashtirilishi.

2. Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi.

3. Boshqaruv sifati indikatorlari

5-amaliy mashg‘ulot: Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi va Inson kamoloti, Huquq ustuvorligi, Jahon mamlakatlari demokratiyasi, Matbuot erkinligi indekslari O‘zbekistonning o‘rni.

REJA:

1. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi va Inson kamoloti.

2. Jahon mamlakatlari demokratiyasi.

3. Matbuot erkinligi indekslarida O‘zbekistonning o‘rni.

O‘QITISH SHAKLLARI

Quyidagi shakllarda ta’lim berish ko‘zda tutilgan:

- binar ma’ruza, bit dars, debatlar, vebinar;

- Online ma’ruza;

- trening, videotrening;

- kichik ma’ruzalar va suhbatlar (diqqatni jamlash va axborotni qabul

qilish qobiliyatini shakllantiradi);

- klaster, kichik guruhlarda ishlash, bumerang (materialni mantiqan tizimli, muammoli bayon etishni rivojlantiradi);

blits o‘yin, qora cuti (aniq muammoli vaziyatni tahlil qilish, kamchiliklar sababini yo‘l-yo‘lakay aniqlashga yo‘naltiriladi).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha tinglovchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga tinglovchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Tinglovchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga tinglovchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobjiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda tinglovchilarning barchasini jalg etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan tinglovchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Tinglovchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi tinglovchilarda turli g‘oyalari shakllanishiga olib keladi. Bu metod tinglovchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.


“Aqliy hujum” metodi o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Tinglovchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda –yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalari muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g‘oyalari, ular hatto to‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir tinglovchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Tinglovchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlari so‘raladi;
2. Tinglovchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Tinglovchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalari ma’lum belgilar bo‘yicha guruhanadi;
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi tinglovchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- tinglovchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalari vizuallashtirilib boriladi;

- tinglovchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;

- tinglovchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.


“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- O‘qituvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- O‘qituvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI - tinglovchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda tinglovchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda o‘qituvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Tinglovchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. O‘qituvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqt ni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha tinglovchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.


«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz tinglovchilar bo‘lganligi sababli kuchli tinglovchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha tinglovchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“DAVRA SUHBATI” METODI – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan tinglovchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir tinglovchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari

mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida o‘qituvchi mavzuni boshlab beradi va tinglovchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir tinglovchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan tinglovchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa tinglovchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbat” metodining tuzilmasi keltirilgan

“Davra suhbat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. O‘qituvchi tinglovchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

3. Har bir tinglovchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha tinglovchi bo'lsa, shunchadan "Javoblar varaqlari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Tinglovchi konvertga va "Javoblar varaqlari"ga o'z ismi-sharifini yozadi.

4. Tinglovchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va "Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.

5. Konvertga savol yozgan tinglovchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi tinglovchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan tinglovchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqlari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi tinglovchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan tinglovchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan tinglovchi konvertdagi "Javoblar varaqlari"ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali tinglovchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda tinglovchilar o'zları bergen savollariga guruhdagi boshqa tinglovchilar bergen javoblarini baholashlari va o'qituvchi ham tinglovchilarni ob'yekтив baholashi mumkin.

"ISHBOP O'YIN" METODI - berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

O'yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o'yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'zgartirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Ishbop o'yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo'ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat'iy belgilangan va o'yin davomida o'zgarmas rolni ijro etishlari lozim.

Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o‘z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o‘yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o‘zining vazifasi bo‘yicha qaror qabul qiladi, so‘ngra guruh bilan maslahatlashadi. O‘yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

“Ishbop o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo‘riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.
2. Ta’lim oluvchilarni o‘yinning maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘radilar.
5. Ta’lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o‘yinni amalga oshiradilar. Ta’lim beruvchi o‘yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.
6. O‘yin yakunida ta’lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytildi.
7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Har bir rolni ijro etuvchi o‘z vazifasini to‘g‘ri bajarishi, berilgan vaziyatda o‘zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko‘rsata olishi kerak.


“ROLLI O‘YIN” METODI - ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagи rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlari hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha

ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yining maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yining maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yining maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

“BAHS-MUNOZARA” METODI - biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- ✓ fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o‘zaro hurmat.

“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan bирgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul yechimi

tanlanadi.

“MUAMMOLI VAZIYAT” METODI - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar.

Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim

beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“LOYIHA” METODI - bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyatga tadbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak. Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.

“Loyiha” metodining bosqichlari

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig‘adilar.

2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarini rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta’lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo‘yicha qaror qabul qiladilar. Ta’lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo‘yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta’lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta’lim oluvchilar topshiriqni ish rejasini asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU: O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi.

Reja:

1.O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi.

2.O‘zbekiston Respublikasining BMTga a’zo bo‘lishi va jahon hamjamiyatidagi o‘ziga xos o‘rni.

3.O‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va mavqeyining oshib borishi.

4.O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari.

5.O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari.

Tayanch tushunchalar: xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlar, jahon hamjamiyati, MDH, O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, Markaziy Osiyo davlatlari, Yevropa Ittifoqi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari

O‘zbekiston o‘zining joylashuviga ko‘ra Markaziy Osiyoning transport, energetika, kommunikasiya, suv tizimi markazida joylashgan. Tabiiy iqlim sharoiti qulay, ulkan mineral – xomashyo zaxiralari va strategik materiallarga ega, dehqonchilik madaniyati rivojlangan, oziq-ovqat bilan o‘zini ta’minlashga qodir. O‘zini neft, gaz, rangli metallar bilan ta’minlabgina qolmay, ularni yeksport qilish imkoniyatiga ham ega. O‘zbekiston Respublikasining yer ostida amaldagi Mendeleyev davriy tizimining barcha elementlari mavjud. Mazkur imkoniyatlari bo‘lgan taqdirda ham O‘zbekiston geosiyosiy joylashuvini noqulayliklardan mustasno deb bo‘lmaydi. Shu jihatdan O‘zbekiston Respublikasiga qiyinchiliklar tug‘diruvchi quyidagi omillar mavjud: O‘zbekiston Fors ko‘rfazi, Kaspiy dengizi havzasasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim halqaning strategik markazida joylashgan. Shuning uchun bu hududda butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida ko‘pgina davlatlarning bir-biriga mos

kelmaydigan manfaatlari o‘zaro to‘qnashmoqda. Dunyodagi kuchli davlatlar mazkur mintaqada o‘z manfaatlarini izlamoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston mintaqadagi etnik murosasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag‘batlantirilib kelinayotgan, ichki mojarolar hali ham tugatilmagan Afg‘oniston kabi davlat bilan chegaradoshdir. O‘zbekiston bevosita dengizga chiqa olmaydigan, buning ustiga dengiz portlaridan eng uzoqda joylashgan mamlakat hisoblanadi. Qora dengiz, Boltiq dengizi, Yapon dengizi va Shimoliy dengizlarga olib chiquvchi eng qisqa temir yo‘li qariyb 3 ming kilometrni tashkil etadi. Mustaqil O‘zbekistonning, umuman, hamma daryolari hamda respublika hududini kesib o‘tadigan, uzunligi 150 va undan ko‘p kilometrli daryolar 50 tadan oshgan bo‘lishiga qaramasdan, uning suv resurslari cheklangan va ekologik muammolari ham bor. Orol fojiasi ham mamlakatimiz uchun noqulaylik omilidir.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosati asoslarining ishlab chiqilishi. Hozirda xalqaro hamjamiyat mustaqil O‘zbekiston diplomatiyasining dastlabki qadamlari, Markaziy Osiyodagi mavqeyi, mintaqa xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni alohida ekanini tan olmoqda. O‘zbekiston tashqi siyosatining ma’naviy yo‘nalishi, insonparvarlik, oshkoraliq, qadrqimmat, o‘z imkoniyatlariga tayanish va insoniyatning yagona oilasida o‘z taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lishdir. Shu bois istiqlol yillarida mamlakatimiz 149 davlat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o‘rnatgan, Toshkentda 45 ta xorijiy davlatning elchixonalari, 9 ta faxriy konsullik, 11 ta xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat olib bormoqda. Mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko‘p jihatdan xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liq edi. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosat tizimi O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, Vazirlar Mahkamasining 1992-yil may oyidagi “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil yetish masalalari to‘g‘risida”gi va 1994-yil mart oyida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari asosida shakllantirildi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasining 17-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal yetish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi”.

1996-yil “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. 2012-yil sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysi” e’lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysi – bu davlat tashqi siyosatining prinsiplari va strategik ustuvor yo‘nalishlarini, xalqaro maydondagi maqsad va vazifalarini, istiqbolda O‘zbekiston milliy manfaatlarini ilgari surish mexanizmlarini belgilab beradigan qarashlarning yaxlit tizimidir.

Mazkur Konsepsiada Markaziy Osiyo mintaqasiga alohida e’tibor qaratilgan va “O‘zbekistonning hayotiy muhim manfaatlari shu mintqa bilan bog‘liq” ekanligi rasman e’tirof etilgan. Unda Markaziy Osiyo o‘zining muhim geosiyosiy joylashuvi va mineral xomashyo resurslarining ulkan zaxiralariga ega ekanligi tufayli jahon miqyosida kuchli e’tibor obyektiga, yirik davlatlarning strategik manfaatlari to‘qnashadigan hududga aylanib borayotgani ta’kidlangan. Shuningdek, dunyoning yirik davlatlari tomonidan mintaqada olib borilayotgan o‘zaro raqobat inobatga olinib, “Markaziy Osiyo muammolari tashqi kuchlarning aralashuvisz, mintaqadagi davlatlarning o‘zları tomonidan yechilmog‘i zarur”, degan fikr bayon etilgan. Konsepsiada O‘zbekistonning tinchliksevar siyosat yuritishi, harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmasligi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqish huquqini o‘zida saqlab qolishi ta’kidlandi.

Tashqi siyosat tamoyillari. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: mafkuraviy qarashlardan qat’i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini



hurmat qilish; boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; nizolarni tinch yo‘l bilan hal yetish; kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; inson huquqlari va yerkinliklarini hurmatlash; ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi; davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish; tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik; davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi; tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik kabilar ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olindi.

Mustaqil O‘zbekiston tashqi siyosatining asosini ochiq-oydinlik, teng huquqlilik, demokratik prinsiplariga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarini ulug‘lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta’sir qilish kabilar tashkil etadi va Respublika tashqi siyosati tinchlik va xavfsizlik uchun umumjahon e’tirof etgan ochiq yakdillik talablariga asoslanadi. 1992-yil 2-martda O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lib, dunyo miqyosida tan olindi. Bu voqeа Respublikaning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatda munosib o‘rin olishda ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

1993-yil fevral oyiga kelib Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi. Xolid Malik BMTning O‘zbekistondagi vakili etib tayinlandi.

O‘zbekiston BMTning to‘laqonli a’zosi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining yig‘ilishlarida ishtirok etishi bilan o‘zining xalqaro hamjamiyatga kirish jarayonini davom ettirdi.

O‘zbekiston rahbariyatining dunyodagi global muammolarga jahon miqyosida

e'tiborini qaratishi O'zbekistonning tashqi siyosatda tutgan aniq o'rnini belgilab berdi.

Chunonchi, 1993-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma'rzasida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ilgari surgan birinchi xalqaro tashabbusi O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi adolatparvar siyosatidan darak berdi.

Prezident muayyan «olovli nuqtalar» deb atalayotgan mintaqalarda birgalashib harakat qilib, tinchlik va barqarorlikka erishish lozimligi haqidagi aniq takliflarni kiritdi va O'zbekiston «ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslikni ta'minlash bo'yicha kerakli xalqaro kafolatlarni qabul qilishni, yadro sinovlarini butunlay to'xtatish haqidagi shartnomaning tezda tuzilishi tarafdori» ekanligini ham ko'rsatib o'tdi.

1995-yil 24-oktabrda Nyu-Yorkda BMT ning 50 yilligi munosabati bilan Prezident I.A.Karimov nutq so'zlab, Afg'onistondagi keskinlikni hal etish kaliti eng avvalo tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etishdir, degan taklifni kiritdi. Ushbu yig'ilishda Orol dengizi qurishi bilan bog'liq bo'lgan global muammo ham ko'tarildi. Prezident I.A.Karimov «Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik fojia, butun yer yuzini qamrab oladigan biosfera, o'nlab million kishilarning hayot sharoitlari, salomatligi, nasliga halokatli ta'sir ko'rsatuvchi global muammo» ekanligini ko'rsatib, bugungi kunda BMTning tashkilotchilik faoliyatjisiz bu muammoni hal etish mumkin emasligini ham asoslab berdi.

1995-yil 16-sentabrda Toshkentda BMTning Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminar-kengashi ish boshladi. Dunyoning ko'p davlatlari ishtirok etgan bu seminarda O'zbekiston rahbarining so'zlagan nutqi bosh hujjat sifatida qabul qilindi.



2000-yil BMT Bosh Assambleyasining 55-sessiyasi «Ming yillik sammit»ida Islom Karimov BMT minbaridan BMTning mintaqaviy va global muammolarni hal etishdagi o'rni va ahamiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinishi zarurligini ta'kidlab, Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari tarkibiga Germaniya va Yaponiyani kiritishni, global va mintaqaviy tahdidlarga munosabat bildirishda tezkorlikni oshirish uchun Bosh Kotib vakolatlarini kengaytirish lozimligini qayd etdi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2001-yilda BMT Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurash bo'yicha maxsus qo'mitasi ta'sis etildi. 2010-yil BMT Bosh Assambleyasining 65-sessiyasidagi Prezident Islom Karimov o'z nutqida jahon mamlakatlari e'tiborini yana Markaziy Osiyodagi murakkab muammolarni hal etish yo'llariga qaratdi. 2002-yil oktabr kunlari BMT Bosh kotibi Kofe Ananning, 2010-yil aprel oyida BMT Bosh kotibi Pan Gi Munning O'zbekistonga tashriflari ham mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatdagi o'rni mustahkamlanib, obro'-e'tibori ortib borayotganining dalilidir.

2017-yil iyunda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish O'zbekistonga tashrif buyurdi. Samarqandda u Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashdi.

Guterrish Islom Karimov qabrini ziyorat qilib, keyin Orolbo'yi hududidagi vaziyat bilan tanishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil sentabrda bo'lgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zlab, zamonaviy dunyodagi ma'lum global muammolarga jahon hamjamiyatining e'tiborini qaratdi.

Jumladan, Prezident o'z nutqida Afg'onistonda tinchlik o'rnatish, Orol fojasi, yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ma'rifat, bag'rikenglik masalalariga alohida to'xtaldi.

Prezident SH.M.Mirziyoyev tomonidan «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» tamoyilini xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilinishi to'g'risidagi taklif davlat rahbarlari va delegatsiyalari o'rtasida yuksak e'tirofga sazovor bo'ldi. Ushbu



tamoyil 50 dan ziyod davlatning qo‘llab-quvvatlashi natijasida 2018-yil 12-dekabr kuni BMT tomonidan qabul qilindi.

Keyingi yillarda yosh mustaqil davlatlar ichida Markaziy Osiyo davlatlari uchun dini, urf-odatlari va an’analari yaqin bo‘lgan Sharq mamlakatlari bilan o‘zaro aloqalar olib borish imkoniyatlari bu mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni kengaytirdi. Shuningdek, O‘zbekiston 1992-yil 6-fevralda Turkiya, Pokiston, Eron tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a’zo bo‘lib kirdi va 1992-yil Eron, Turkiya, Pokiston, Turkmaniston, Qozog‘iston davlat va hukumat rahbarlari bilan imzolangan «Trans-Osiyo» temir yo‘l aloqasini tiklash maqsadida Tajan-Seraxs-Mashhad yo‘li qurilishi haqidagi bitimda faol ishtirok etdi. Bu O‘zbekiston uchun dengiz yo‘llariga, xalqaro transport tarmog‘iga, tovar va kapital xalqaro bozoriga chiqish imkoniyatini berdi. Arab mamlakatlari bilan olib borilgan aloqalar madaniy va diniy tomondan ham uzviy bog‘liq bo‘ldi. Bu yo‘ldagi harakatlar natijasida savdo-sotiq, turizmni rivojlantirish va kadrlarni o‘qitish imkoniyatlariga yo‘l ochildi.

1991-yil 8-dekabrda Minsk shahri yaqinida sobiq ittifoqning barham topishi munosabati bilan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga asos solindi. MDHning vujudga kelishi haqidagi hujjatga dastlab Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belorusiya davlatlari imzo chekdilar. 13-dekabrda Ashxobodda o‘tgan O‘rta Osiyo va Qozog‘iston Respublika rahbarlarining kengashida hamdo‘stlikni kengaytirish zarur deb topildi. Natijada shu yili 21-dekabrda Almatada o‘tgan uchrashuvda jami 11 davlat MDHga a’zo bo‘lib kirdi. Ular bu bitimda davlatlarning hududiy butunligini tan olish, amaldagi chegaralar, ularning ochiqligi, fuqarolarning harakati erkinligiga, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, harbiy harakat va qurol-yarog‘ tarqatishning oldini olishda birgalikda harakat qilishga kelishib oldilar.

1991–2000-yillarda MDH davlatlari boshliqlarining 30 ga yaqin kengashlari bo‘lib o‘tdi va muhim hujjatlar imzolandi. Ular orasida xavfsizlik masalalari, tinchlikni saqlash, iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yib olish



uchun davlatlalaro iqtisodiy qo‘mita tuzish, iqtisodiy integratsiyani to‘laqonli amalga oshirish, bojxona va ittifoq to‘lovi masalalarini izga solib olish kabilar muhim o‘rin egalladi. O‘zbekiston MDH doirasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalar bo‘yicha shartnoma hamda kelishuvlarni Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va boshqa mamlakatlari bilan imzolab, o‘zaro manfaatli hamdo‘stlik aloqalari uchun mustahkam asos yaratdi.

2001-yil MDH tashkil topganligining 10 yilligi munosabati bilan Rossiya davlati poytaxtida MDH davlatlari rahbarlari ishtirokida sammit o‘z ishini boshladi. Sammitda o‘tgan vaqt mobaynida qilingan ishlar sarhisob qilindi va o‘zaro savdodagi cheklashlarni bartaraf etish, tovarlar va xizmatlar oqimini ko‘paytirish uchun axborot-marketing markazlarini tuzish, ta’lim, madaniyat, soliq, bojxona sohalarida faoliyat ko‘rsatuvchi muassasalar, xo‘jalik sudsulari hamkorligini kengaytirish masalalari muhokama etildi.

2017-yildan boshlab, MDH davlatlari bilan o‘zaro munosabatlar yangi sifat pog‘onasiga ko‘tarildi. Xususan, MDH davlatlari bilan o‘zaro savdo-iqtisodiy aloqalar hajmi 20 % ga ko‘tarildi. MDH davlatlarining 2017-yil 11-oktabrdagi Sochi sammitida unga a’zo mamlakatlar davlat rahbarlarining «Oila instituti va an’anaviy oilaviy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha» bayonoti, Hamdo‘stlikda 2019-yilni Kitob yili, 2020-yilni 1941–1945-yillardagi Ulug‘ Vatan urushida qozonilgan G‘alabaning 75 yilligi yili, deb e’lon qilish haqida qaror qabul qilindi.

Hamdo‘stlik mamlakatlarining jinoiy daromadlarni legallashtirish, terrorizm va qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohalaridagi hamkorligiga doir konsepsiylar ma’qullandi. Shuningdek, MDH mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan yana qator hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston qo‘shni Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro iqtisodiy, savdo aloqalarni mustahkamlash, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini rivojlantirish tarafdori.

Din, e’tiqod, til birligi, azaliy qardoshlik munosabatlari bu davlatlar iqtisodiy

taraqqiyotida shubhasiz katta ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda o‘ziga ruhan, urf-odatlari va an’analari bilan yaqin mamlakatlar bilan mustahkam munosabatlar o‘rnatish suveren O‘zbekistonning tashqi siyosatidagi muhim yo‘nalishlardan biridir. Bu ishlar Turkiston xalqlarining asosiy manfaatlarini ifodalagani uchun, ular orasida qadimiy do‘stlik va birodarlikni mustahkamlash, o‘zaro iqtisodiy muammolarni yechish, milliy-madaniy aloqalarni tiklash uchun juda qulay sharoit yaratib, kishilar qalbida mehr-oqibat, birodarlik tuyg‘ularini uyg‘otib kelmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi. O‘zbekiston tashqi siyosatining yetakchi yo‘nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan do‘stlik, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Mintaqadagi beshta davlat o‘rtasida o‘xhash jihatlar ko‘p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dinimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligi bu mamlakatlар xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishning zaminidir. Yangi tarixiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlarining kelib chiqishi, ularning tarixi, o‘ziga xos turmush tarzları va yaqin qo‘shnichilik munosabatlariga har qachongidan boshqacharoq qarashni hayot taqozo yeta boshladi. 1993-yilning yanvarida Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvi tashkil etildi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo‘stligiga asos solindi. Besh davlat – Qirg‘iziston, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston rahbarlari Hamdo‘stlik haqidagi bitimga imzo chekishdi. Buni mintaqqa xalqlari zo‘r mamnuniyat bilan qarshi oldilar va qo‘llab-quvvatladilar.

O‘zbekiston qo‘shni Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro iqtisodiy, savdo aloqalarni mustahkamlash, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini rivojlantirish tarafdori.

Din, e’tiqod, til birligi, azaliy qardoshlik munosabatlari bu davlatlar iqtisodiy taraqqiyotida shubhasiz katta ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda o‘ziga ruhan, urf-odatlari va an’analari bilan yaqin mamlakatlar bilan mustahkam munosabatlar

o‘rnatish suveren O‘zbekistonning tashqi siyosatidagi muhim yo‘nalishlardan biridir. Bu ishlar Turkiston xalqlarining asosiy manfaatlarini ifodalagani uchun, ular orasida qadimiy do‘stlik va birodarlikni mustahkamlash, o‘zaro iqtisodiy muammolarni yechish, milliy-madaniy aloqalarni tiklash uchun juda qulay sharoit yaratib, kishilar qalbida mehr-oqibat, birodarlik tuyg‘ularini uyg‘otib kelmoqda.

1994-yil 10-yanvarda Qozog‘iston Respublikasi Birinchi Prezidenti N.Nazarboyevning O‘zbekistonga tashrifi Markaziy Osiyo hamdo‘stligiga amaliy poydevorni qo‘ydi. Unda ikkala mamlakat rahbarlari «Yagona iqtisodiy hudud» barpo etish to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar. Bu shartnomada O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o‘tib turishini nazarda tutuvchi hamda o‘zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, budget, soliq, narx, boj va valyuta siyosatini ta’minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish ko‘zda tutildi.



1995-yil 15-dekabr Qozog‘iston va O‘zbekiston Respublikalari davlatlararo Kengashining Jambul shahrida navbatdagi kengashi bo‘ldi. Mazkur kengashda Prezidentlar 2000-yilgacha bo‘lgan iqtisodiy integratsiya va birinchi navbatda sarmoya sarflanishi lozim bo‘lgan loyihamalar dasturlarini hayotga joriy etish, kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish masalalarini muhokoma etdilar. Integratsiya dasturida 53 ta loyiha ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘zining «Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir» nomli kitobida o‘zbek va qozoq xalqlarining o‘zaro do‘stligiga yuksak baho berib: «Biz – qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar, tojiklar va o‘zbeklar go‘zal Markaziy Osiyoda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlar vakillari birgalikda tinch-totuv, do‘stinoq bo‘lib yashashimiz taqdirming o‘zi tomonidan belgilab

berilgandir»¹, – deb ta’kidlagan. O‘zbekiston hamisha Qozog‘istonning eng ishonchli sherigi bo‘lgan, 2018-yilda Qozog‘istonda «O‘zbekiston yili», 2019-yilda O‘zbekistonda «Qozog‘iston yili» deb e’lon qilinishi ikki millatning yaxshi qo‘sni chilik, strategik sheriklik aloqalari yanada mustahkamlanishiga asos bo‘ldi. Bizga ma’lumki, tariximizda Qarlig‘ashbiy sifatida mashhur bo‘lgan To‘lanboy maqbarasi Toshkentda joylashgan bo‘lib, bu maqbara o‘zbeklar uchun ham, qozoqlar uchun ham muqaddas ziyoratgoh sifatida e’tirof etiladi.

Millatlar va madaniyatlar hamohangligida yurtimizda 2019-yil 5–10-arpel kunlari Xalqaro baxshichilik san’ati festivali bo‘lib o’tdi va bu festivalda qozog‘istonlik Uljan Baybusinova gran-priga sazovor bo‘lishi o‘zbek va qozoq madaniyatining mushtarakligidan dalolat beradi.

O‘zbekistonning Qirg‘iziston bilan ikki tomonlama hamkorligi O‘zbekiston Respublikasi bilan Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam haqida shartnama asosida yo‘lga qo‘yildi va rivojlantirilmoqda. Bu shartnama Qirg‘iziston Prezidenti Askar Akayevning O‘zbekistonga rasmiy davlat tashrifi paytida Toshkentda 1992-yil 29-sentabrda I.Karimov va A.Akayev tomonidan imzolangan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1993-yil avgustida Qirg‘izistonga qilgan rasmiy davlat tashrifi paytida O‘sh shahrida O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida 1994–2000-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish to‘g‘risida Bayonot imzolandi. Bu hujjat ikkala respublikada ishlab chiqilgan milliy dasturlarni muvofiqlashtirishga, xomashyo va ishchi kuchidan, ilmiy salohiyatdan unumli foydalanishga qaratilgan. Ikki davlat o‘rtasida iqtisodiyot, savdo, madaniyat, sog‘liqni saqlash, fan va ta’lim, sport va turizm bo‘yicha hamkorlikni mustahkamlash haqida bitimlar imzolangan. 1994-yil 16-yanvarda O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov Qirg‘izistonda bo‘ldi. Rasmiy tashrif yakunida ikki davlat Prezidentlari tovarlar, xizmatlar, sarmoya, ishchi kuchlarining erkin yurishini, o‘zaro kelishilgan kredit hisob-kitob, budget,

¹ O’sha kitob. Qozog‘iston – ko’p asrlik do‘stlik va qardoshlik rishtalari bilan chambarchas bog’langan yaqin qo‘sni chilik. –B. 417-418.

soliq, narx, bojxona va valyuta siyosatini belgilovchi shartnomani imzoladilar. O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida 1994-yil uchun savdo-iqtisodiy hamkorlik, madaniyat, sog‘liqni saqlash, fan va ta’lim, sport va turizm bo‘yicha hamkorlikni yanada mustahkamlash haqida bitimlar imzolandi. Bu hujjatlar asosida ikki mamlakat o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik rivojlanib bormoqda. 2000-yilda O‘zbekistonda

22 ta o‘zbek-qirg‘iz qo‘shma korxonasi, Qirg‘izistonda 62 ta qirg‘iz-o‘zbek qo‘shma korxonasi faoliyat yuritdi.

Buyuk qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov va uning asarlarini o‘qiganimizda, o‘zbek va qirg‘iz xalqlarining o‘zaro taqdiri mushtarakligini ko‘rishimiz mumkin. Millatlararo totuvlikni va milliy munosabatlarni shakllantirishda o‘zbek va qirg‘iz xalqlarining madaniyati, tarixi va ma’naviyati bir ekanligiga duch kelamiz. Respublikamizda bugungi kunda 300 mingga yaqin qirg‘iz millatiga mansub O‘zbekiston fuqarolari emin erkin yashashmoqda. Qirg‘iz bolalari uchun 40 dan ortiq maktablar qirg‘iz tilida faoliyat yuritmoqda. «O‘zbekiston» nashriyotida «Qirg‘iz tili» bo‘limi qirg‘iz maktablari uchun darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari nashrga tayyorланади va o‘quvchilarga yetkaziladi. Andijon davlat universitetida qirg‘iz maktablari uchun pedagog kadrlar tayyorlanganligi O‘zbekistonda qirg‘iz yoshlarining ta’lim olish huquqi kafolatlanganligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston milliy televideniyasi orqali efirga uzatilayotgan qirg‘iz tilidagi «Aychurek» va «Elaman» eshittirishi orqali qirg‘iz xalqining urf-odatlari va milliy qadriyatlari namoyish etiladi. O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan qirg‘iz millatiga mansub O‘zbekiston fuqarolari bugungi o‘zgarishlar va yangi taraqqiyotdan minnatdorligini ko‘rishimiz



mumkin².

Hozirda mamlakatimizda oltita qirg‘iz madaniy markazlari faoliyat ko‘rsatib, ular o‘z xalqining madaniyati, tili, an’analari va qadriyatlarini saqlab qolish, rivojlantirish yo‘lida salmoqli ishlar olib bormoqdalar. Qirg‘iz millatiga mansub yurtdoshlarimiz barcha sohada samarali mehnat qilib, O‘zbekiston ravnaqi uchun munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Ular o‘zlarining halol mehnatlari bilan yurtimizning yuksak mukofotlari bilan juda ko‘p taqdirlanganlar. Qirg‘iz xalqi bilan o‘zbek xalqining madaniy munosabatlarini atoqli yozuvchi, olim va o‘zbek xalqining qalbida chuqur iz qoldirgan Chingiz Aytmatovsiz tasavvur qilish qiyin. Chingiz Aytmatov ikki qardosh xalqni doimo birday ko‘rib, ularning tinchligi va omonligi, ahil va do‘sit bo‘lib yashashi, xalqimizning turli ziddiyat va qarama-qarshiliklardan asrab kelganidan tarix guvoh. Buyuk adibning asarlari eng ko‘p tarjima qilingan va nashr qilingan davlatlar orasida O‘zbekiston birinchilardan bo‘lib turadi. So‘nggi yillar ichida adibning o‘nlab asarlari chop etildi. Jumladan, 2014-yili «Qiyomat», «Erta qaytgan turnalar», «Qulayotgan tog‘lar», 2015-yili «Oq kema», «Jamila» va «Yuzma-yuz», 2016-yili «Asrni qaritgan kun» va «Tanlangan asarlar» kitoblari nashr qilindi. Asil Rashidov, Ibroxim G‘ofurov va Suyun Qorayev kabi mohir o‘zbek tarjimonlari bu asarlarni tarjima qilib, o‘zbek kitobxoniga taqdim etdi³.

Tojikistonda 1992–1996-yillarda davom etgan birodarkushlik urushi Tojikistonning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta’sir etdi, uning qo‘shti mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston bilan hamkorligiga ham salbiy ta’sir etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan 1998-yil 4-yanvar kuni Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmonov O‘zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. Ikki mamlakat rahbarlari tashrif yakunlari bo‘yicha qo‘shma axborot imzoladilar. O‘zbekiston va Tojikiston Bosh vazirlari sog‘liqni saqlash, madaniyat va gumanitar soha, fan, texnika va axborot sohalari

² Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek xalqining ulkan va ardoqli do’sti // Yagona tarix, mushtarak taraqqiyot va kelajakka asoslangan do’stlik va birodarlik. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: «O‘zbekiston», 2018. –B. 340-343.

³ Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek xalqining ulkan va ardoqli do’sti // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018. –B. 414-415.

bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida bitimlarni imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o‘rtasida yuk tashish hamda gaz yetkazib berish, Tojikistonning qarzi bo‘yicha o‘zaro hisob-kitob to‘g‘risidagi bitimlar ham imzolandi. O‘zbekiston va Tojikiston munosabatlari o‘zining yangi, mustahkamlanish va taraqqiyot davriga o‘tdi.

O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasida tovar ayirboshlash hajmi 1997-yilda 50 mln.



AQSh dollaridan oshdi, bu avvalgi yilga nisbatan 50 foiz ko‘pdir. O‘zbekiston Tojikiston hududidan o‘tgan transport kommunikatsiyalaridan foydalanmoqda. 2000-yilda O‘zbekistonda 15 ta o‘zbek-tojik qo‘shma korxonasi, Tojikistonda 3 ta o‘zbek-tojik qo‘shma korxonasi faoliyat yuritdi.

O‘zbek va tojik xalqlari necha asrlar davomida umumiy an’ana, qadriyat, tarix, ma’naviy-madaniyat mushtarakligi bu ikki xalqlarni o‘zaro birlashtirib turadi. Xalqimizning tojik xalqi bilan dini, kundalik turmush tarzi va urf-odatlari shu qadar yaqinki, ularni ajratish mumkin emas. O‘zbekistonda bugungi kunda 1,5 milliondan ortiq tojiklar istiqomat qilmoqda va 245 ga yaqin tojik tilidagi maktablar o‘z faoliyatini yuritmoqda⁴. Farg‘ona, Samarqand, Termiz davlat universitetlarida tojik tili ta’lim yo‘nalishida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlanishi yo‘lga qo‘yilgan. Buxoro, Farg‘ona va Samarqand viloyatlari teleradiokompaniyalari tomonidan tojik tilidagi ko‘rsatuvalar va jonli eshittirishlar orqali O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan tojik millatiga mansub xalqimizning urf-odatlari va an’analari ko‘rsatilmoqda. «Ovozi tojik», «Ovozi Samarqand», «So‘x» davriy bosma nashrlari esa yurtimizdagи o‘zgarishlarni yoritmoqda.

Yurtimizda Respublika tojik milliy madaniy markazi tarkibida 10 ga yaqin Jizzax, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Farg‘ona, Namangan, Toshkent va Chirchiq shaharlarida o‘z filiallari faoliyat ko‘rsatmoqda. Tojik

⁴ Mirziyoyev Sh.M. Yagona tarix, mushtarak taraqqiyot va kelajakka asoslangan do’stlik va birodarlik // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018. –B. 340-343.

xalqining boy an'analari, qadriyatlari va tarixini saqlash va rivojlantirish maqsadida faoliyat ko'rsatayotgan madaniy markazlar hukumatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Mustaqillik yillaridan boshlab 700 dan ziyod tojik millatiga mansub fuqarolarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanganligini ko'rshimiz mumkin.

Uzoq yillar davomida O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari o'rtasida ayrim sabablar bilan vujudga kelgan nizolar yangi taraqqiyot bosqichiga kelib ancha yumshadi. 2018-yilning o'zida ikki marotaba Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning O'zbekistonga tashrifi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga rasmiy tashrifi orqali millatlar o'rtasida yana qaytadan do'stlik aloqalari tiklandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 10–11-iyul kunlari Tojikistonga tashrif buyurgan ikkinchi tarixiy rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni yanada mustahkamlashga sabab bo'ldi. «Ko'hi Borbad» san'at saroyida O'zbekiston va tojikistonlik san'at ustalari ijrosida katta konsert dasturi va Shavkat Mirziyoyevning ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ulkan xizmatlari uchun Tojikistonning yuksak mukofoti – I darajali «Zarrintoj» ordeni bilan mukofotlanishi O'zbekiston va Tojikiston xalqlarining muqaddas yeri, suvi, dini bir, tarixi va taqdiri, tashvish-u shodliklari mushtarak ekanini ko'rsatadi⁵.

1991-yilda O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnomalar imzolandi. Bu shartnomalar ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalarga negiz bo'lib xizmat qildi.

«Dil – dile do'g'on, il – ile», ya'ni «Til – tilga qardosh, el – elga» degan turkman xalqining falsafiy maqolidan shuni ko'rshimiz mumkinki, haqiqiy do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlari qanday bo'lishini o'zbek va turkman do'stligi ko'rsatadi. Tarixiy va ma'naviy ildizlari bir vaqtga, jabhaga

⁵ <https://www.gazeta.uz>. // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga rasmiy tashrifi. 2021.06.12.

boradigan turkman xalqi o‘zbeklar bilan asrlar davomida ahil qo‘sni chilik siyosatini yuritib kelmoqda. O‘zbekiston – Turkmaniston strategik sherikdir. Xalqlarimizni asrlar davomida do‘slik, madaniyat, an’ana va ahil qo‘sni chilik bog‘lab kelmoqda. Turkman xalqining mumtoz namoyondasi Maxtumquli Firog‘iy insoniylik, tinchliksevarlik, o‘zaro hamjihatlik, ezgulik va odamlar o‘rtasida oliyjanob fazilatlarni tarannum etuvchi shoir sifatida o‘zbek o‘quvchisi orasida ma’lum va mashhur⁶.

Millatlararo totuvlikning yangi, innovatsion shakllaridan biri davlat rahbarlarining qalamiga mansub asarlarning taqdimoti va ushbu tadbirlar mazmuni, maqsadi, mohiyatini, ushbu tadbirlarda ishtirok etadigan mutaxassislar fikrini, ommaviy axborot vositalari orqali ommaga, shu jumladan, yoshlarga yetkazish, uning tarbiyaviy jihatlarini ilmiy asosda ochib berish, inson kamoloti uchun zarurligini ta’kidlash hisoblanadi. Shunday tadbirlardan biri, 2017-yil 30-noyabr kuni Toshkent shahrida Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning «Turkmaniston – Buyuk Ipak yo‘lining yuragi» nomli kitobi taqdimoti o‘tkazildi⁷. Tashkil etilgan tadbirda tegishli vazirlik, mamlakatimizda akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatik korpus vakillari, ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi. Turkmanistonning O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Shiri Shirihev hamda boshqalar ikki davlat o‘rtasidagi an’anaviy do‘slik va hamkorlik aloqalari yangi zamon ruhida rivojlanayotganini ta’kidladi. Turkmaniston Prezidentining yangi kitobi «Jayhun bo‘ylab», «Qadimgi Marv», «Saraxs va Amu oralig‘ida», «Nisadan Dehistongacha», «Qadimiy Dashovuz yerlarida» hamda «Mo‘jizaviy dunyo» deb nomlangan olti bobdan iborat asarida Buyuk Ipak yo‘lining rivojlanish tendensiyasi, tarixiy dinamikasi va yaxshi qo‘sni chilik munosabatlarini



⁶ Sayipova S. Turkman – xalqimiz do‘sligi // Xalq so’zi. 45(253). 2021. –B .2-3.

⁷ <http://kun.uz/> // Turkmaniston yaqin qo’shimiz va sherigimiz. 2017-y.3-dekabr.

mustahkamlashdagi roli hamda xalqlar o‘rtasidagi savdo aloqalarining ravnaqi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Uning yana bir o‘ziga xosligi shundaki, kitobdagagi ma’lumotlar Buyuk Ipak yo‘lining tarixi va madaniyatini ilmiy asosda o‘rganadiganlar uchun juda muhim qo‘llanmadir. Kitob Turkmaniston davlat nashriyoti tomonidan turkman, ingliz hamda rus tillarida chop etilgan. Qayd etish lozimki, ushbu asarda mintaqamiz davlatlarining do‘stona munosabatlarini mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan⁸.

Nazorat savollari:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning taklifiga binoan qachon Koreya Respublikasiga rasmiy tashrif bilan bordi?

2. Qachondan boshlab Toshkentda Koreya ta’lim markazi faoliyat olib bormoqda?

3.Qachon Koreya Respublikasi Prezidenti Park Geunhening O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi?

4. Koreya Respublikasi nechanchi yilda O‘zbekiston mustaqilligi tan olingan?

5.Hozirgi kunda O‘zbekiston hududida Hindiston sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan korxona faoliyat yuritmoqda?

2-mavzu: O‘zbekistonning geosiyosiy va geoiqtisodiy o‘rni.

Reja:

1. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O‘zbekiston Respublikasining faolligi.

2.O‘zbekistonning SHHT bilan aloqalari. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari bilan yangi strategik sherikchilik shartnomalarining imzolanishi.

3. Turkiy davlatlar tashkiloti va uning mintaqadagi o‘rni va ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: O‘zbekiston, geosiyosiy, geoiqtisodiy, tinchlik, barqarorlik, Markaziy Osiyo, xavfsizlik, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, SHHT, tashqi siyosati

⁸ Lutfullayev O. Turkmaniston Prezidenti kitobining taqdimoti o’tkazildi // Xalq so’zi. № 342 (6785). 2017. –B. 3-4.

O'zbekiston azaldan turli millatga mansub, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlar tinch-totuv yashagan o'lka bo'lib kelgan. Ajdodlarimiz boshqa din vakillariga doimo hurmat bilan munosabatda bo'lgani, Vatan taraqqiyoti yo'lida yelkadosh bo'lib mehnat qilgani tarixiy manbalarda ko'p qayd etilgan. Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining soni 34 mln.dan oshgan bo'lib, ular 130 dan ziyod millatga mansub hisoblanadi. Fuqarolarning 94% dan ziyodi islom diniga e'tiqod qiladi. 3,5% ga yaqin fuqarolar pravoslav diniga mansub bo'lib, qolganlarini boshqa konfessiya vakillarini tashkil etadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 16 diniy konfessiyaga mansub 2 238 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2064 tasi islomiy, 157 tasi xristian, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoiy jamoalari, bittadan Krishnani anglash jamiyati va Buddha ibodatxonasi. Bulardan tashqari konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda. Ushbu diniy tashkilotlarning emin-erkin faoliyat olib borayotgani ham yurtimizda hukm surayotgan diniy bag'rikenglikning amaliy ifodasıdir. Hech shubhasiz, yurtimizda turli sohalarda erishilayotgan barcha ulkan yutuqlarimizning zamirida jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik hisoblanadi. Ma'lumki, bugun musulmon olamida murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kechmoqda. Yaqin Sharq va boshqa hududlardagi qator mamlakatlar chuqr siyosiy tanglik, ijtimoiy va iqtisodiy beqarorlik va qurolli to'qnashuvlarni boshidan kechirmoqda. Mazkur hududlarda go'yoki haqiqiy "islomiy davlat" qurish shiori ostida ochiqdan-ochiq zo'ravonlik, insoniylikka zid vahshiyliliklarga asoslangan amallarga qo'l urayotgan turli guruh va jamoalar urchib ketdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda ta'kidlaganlaridek: "Bugungi kunda dunyoning turli mintaqa va hududlarida avj olayotgan qarama-qarshiliklar, qonli to'qnashuvlar, musulmon dunyosidagi turli mazhab va oqimlar o'rtasida kuchayib borayotgan nizo va ziddiyatlar, begunoh odamlarning qurban bo'layotgani barchamizni tashvish va xavotirga solmay qo'ymaydi".

Ushbu holat davlatning katta yoki kichikligi, dini va millatidan qat'iy nazar,

tinchlik va barqarorlik naqadar aziz ne'mat ekanini yana bir bor isbotlab bermoqda. So'nggi yillarda aqidaparast oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, "hujralar" tashkil etish, diniy ekstremistik mazmundagi materiallarni elektron ko'rinishda tarqatish, internet orqali targ'ibot o'tkazish kabi usullarda amalga oshirmoqda. Ayniqsa, internet tarmog'ida o'zini "Islom davlati" (ISHID), "Jabhat al-Nusra" deb atab olgan terroristik tashkilotlar go'yoki islom ravnaqi yo'lida kurashayotgan "mujohid birodarlar guruhi" ekani haqidagi targ'ibot-tashviqot keng ko'lamda olib borilayotgani, buning oqibatida dunyoning ko'plab mamlakatlaridan musulmon yoshlar "hijrat" qilish va "jihod"da ishtirok etib da'vosida Suriya va Iroq hududiga borib, ushbu guruh safiga borib qo'shilayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Afsuski, yoshlar muayyan qismi ISHIDni haqiqatda ham islom dinini butun dunyoga tarqatish, islomiy davlat barpo etgan holda dunyodaadolat o'rnatishni maqsad qilgan tashkilot deb hisoblaydi. Bunday fikrlovchilar Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonda ham bor ekani hech kimga sir emas. Bunday yoshlar yuqorida qayd etilgan hududlarda insonlarga qarshi sodir etilayotgan jinoyatlarni go'yoki xalifalik qurish uchun joiz amal hisoblab qattiq adashmoqdalar. Aslida, mutaassib oqim a'zolarining maqsadlari - "jihod", "hijrat", "shahidlik", "kofir bo'lish" kabi diniy tushunchalarni soxta talqin qilish orqali yoshlarimizni oilasi va yaqinlarining ta'siridan chiqarish, o'qish yoki ishidan ajratib olish hamda ularni qurolli to'qnashuvlar ketayotgan Suriya, Iroq, Afg'oniston yoki Pokiston kabi mamlakatlarga jo'natib, manqurt-jangari yoki "tirik bomba"ga aylantirishdan iborat. BMTning inson huquqlari bo'yicha Bosh komissari Navi Pilley e'lon qilgan ma'lumotga ko'ra 2012 yilning iyul oyidan boshlab Suriya va Iroqda har oyda 5000 nafar odam o'lmoqda. O'layotganlar orasida qariyalar, ayollar, oilalar, hatto emizikli go'daklar ham bor. Frantsianing Frans-Press nashri "Syrian Observatory for Human Rights" tashkilotiga tayanib tarqatgan xabariga ko'ra 2011-2015 yillar davomida halok bo'lganlarning soni 230000 ga yetgan. Ulardan 69494 tasi tinch aholi vakillari, 11493 tasi bolalar, 7371 tasi ayollardan iborat. Bu faqat rasmiy ma'lumotlar bo'lib, asl raqamlar mazkur ko'rsatkichlardan ancha yuqori bo'lishi hech kimni hayron qoldirmaydi.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov mustaqillikning dastlabki vaqtlaridanoq, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tojik, turkman va mintaqada yashovchi barcha xalqlar o‘rtasidagi ana shu qadimiy aloqalarni yangi sharoitda mustahkamlashni nazarda tutib, «Turkiston – umumiy uyimiz» degan g‘oyani ilgari surgan edi.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – submintaqaviy xalqaro tashkilot bo‘lib, Yevroosiyo hududining 61% ini egallaydi. SHHTning rasmiy tili rus va xitoy tili, ramzi esa oq bayroq bo‘lib, uning markazida tashkilotning gerbi joylashgan. Tashkilotning shtab-kvartirasi Pekinda joylashgan. 1996-yil Shanxayda Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlat rahbarlarining sammitida chegara hududlari bo‘yicha harbiy sohada o‘zaro ishonchni mustahkamlash bilan bog‘liq shartnoma (1996-yil 26-aprel) imzolanishi natijasida «Shanxay beshligi» vujudga kelgan edi. 1997–1999-yillarda Moskva, Almati, Bishkekda bo‘lib o‘tgan sammitlarda «Shanxay beshligi»ning holati yanada mustahkamlanib, o‘zaro ishonch va hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarildi. 2000-yil Dushanbeda O‘zbekiston Respublikasi birinchi marta kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. 2001-yilda Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo‘ldi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etib, O‘zbekistonning «Shanxay forumi»ga to‘la huquqli a’zo bo‘lishi to‘g‘risida»gi Bayonotni imzoladi. O‘zbekistonning «Shanxay forumi»ga kirishi munosabati bilan uning nomi «Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – SHHT», deb o‘zgartirildi. Sammit yakunida «SHHTni tuzish to‘g‘risida»gi deklaratsiya hamda «Terrorchilik, ayrimachilik va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida Shanxay konvensiyasi» imzolandi. 2002-yil SHHTga a’zo mamlakatlar rahbarlarining navbatdagi Sankt–Peterburg sammitida uchta hujjat: SHHTga a’zo davlatlar rahbarlarining deklaratsiyasi, SHHT Xartiyasi, SHHTga a’zo davlatlar o‘rtasida Mintaqaviy antiterror tuzilmasi (MATT) haqidagi Bitim imzolangan. 2003-yil Moskvada bo‘lib o‘tgan sammitda



SHHT oliv organlari haqidagi Nizomlar tasdiqlandi va tashkilotning gerbi, bayrog'i qabul qilinadi. 2003-yil SHHTning Pekin sammitida «SHHTga a'zo davlatlarning 20 yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi» qabul qilindi. 2004-yil SHHTning Toshkent sammitida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor berildi. 2005-yil mamlakat rahbarlari kengashib, uchta Osiyo mamlakati Hindiston, Eron va Pokistonga kuzatuvchi maqomi berilishi to'g'risida qaror qabul qilindi.

Tashkilot geografik jihatdan kengaydi va bu SHHTning xalqaro mavqeyini yanada yuksaltirdi. Bundan tashqari Afg'oniston va Mo'g'uliston mamlakatlari ham kuzatuvchi maqomiga ega bo'lishdi, Turkiya esa muloqot bo'yicha sherikka aylandi. Tashkilotning 2016-yilgi Toshkent sammitida Hindiston va Pokistonning SHHTga a'zo davlat maqomini olish yo'lidagi majburiyatlari to'g'risidagi memorandumlar imzolandi hamda 2017-yil Ostonadagi sammitda Hindiston va Pokiston tashkilotga a'zo sifatida qabul qilindi. Tashkilotga Hindiston va Pokiston a'zo bo'lgandan so'ng uning salohiyati sezilarli darajada oshgani ta'kidlandi.

2017-yilning iyun oyida tashkilotga a'zo davlat rahbarlarining Ostonada bo'lgan sammitida O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev nutq so'zlab, unda sammit ishtirokchilari e'tiborini Afg'onistondagi vaziyatni yaxshilash, yoshlarni turli yet g'oyalardan asrash, ularning zamonaviy ta'lim-tarbiya olishi, komil inson bo'lib voyaga yetishida davlatlararo hamkorlikka qaratdi. Tartibga ko'ra, Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga raislik Xitoy Xalq Respublikasiga o'tdi.



Shanxay Hamkorlik Tashkiloti rahbarlari (Samarqand-2022)

2022-yil 15–16-may kunlari SHHT davlatlarining yigirma ikkinchi sammiti qadimiy va navqiron shahar – Samarqand sharida bo‘lib o‘tdi.

SHHT tarixida ilk bor sammitda 14 ta davlat yetakchilari va 10 ta xalqaro tashkilot rahbarlari ishtirok etdi. O‘zbekiston Sharqiy, Janubiy va Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Kaspiy dengizi mintaqasi davlatlari rahbarlarini bir maydonga to‘pladi.



Ushbu QR-kod orqali 2022-yil 15–16-may kunlari Samarqand shahrida o‘tkazilgan SHHTning navbatdagi sammitini tomosha qilishingiz mumkin.

Hozirgi kunda Turkiy davlatlar tashkiloti deb nomlanuvchi xalqaro tuzilma turkiy tilli xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash maqsadida 2009-yil 3-oktabrda imzolangan “Naxchivan shartnomasi” asosida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi nomi bilan Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Qozog‘iston va Turkiya hamkorligida tashkil etilgan edi.

Vengriya mazkur tashkilotga 2018-yilda kuzatuvchi maqomi bilan qo‘shildi. 2018-yilning 30-aprelida O‘zbekiston ham bu kengashga a’zo bo‘lish istagini bildirdi va 2019-yil 14-sentabrda tashkilotning to‘laqonli a’zosiga aylandi.

2021-yil 12-noyabrdada Istanbulda bo‘lib o‘tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining VIII Istanbul sammitida tashkilot nomi Turkiy davlatlari tashkiloti deb o‘zgartirildi va Turkmaniston ham tashkilotda kuzatuvchi davlat maqomiga ega bo‘ldi. Hozirgi vaqtida tashkilot faoliyatini koordinatsiyalash bo‘yicha bosh kotibiyat Turkiyaning Istanbul shahrida joylashgan.

Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo va kuzatuvchi davlatlarning aholisi taxminan 150 million kishini tashkil etadi, ular 4 million 200 ming kvadrat kilometrlik katta va muhim geosiyosiy hududda joylashgan. Tashkilotga a’zo davlatlarning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni ham juda salmoqli hisoblanadi.

O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga qo‘shilishini barcha a’zo mamlakatlar yaxshi munosabat bilan qabul qildi. Rasmiy shaxslar, ekspertlar o‘zbeklarning turkiylar tarixidagi o‘rni, bugungi salohiyati va ahamiyatini e’tirof etdi.

Tashkilotning huquqiy asosini tashkil etuvchi 22 moddadan iborat “Naxchivan shartnomasi” mazmuniga nazar tashlansa, eng avvalo, xalqlar o‘rtasidagi tarixiy rishtalar, umumiyl til, madaniyat va an’analardan kelib chiqib, har tomonlama hamkorlikka kirishish va bu munosabatlarni chuqurlashtirishga qaratilgani ko‘rinib turadi. Mazkur hujjatda, shuningdek, tashkilotning vazifa va maqsadlari, tuzilmasi, hamkorlik turlari, tashkilot tarkibidagi kengash va qo‘mitalar, budget, imtiyozlar, xalqaro munosabatlar va nizolarni hal etish masalalari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Tashkilotning maqsad va vazifalari Naxchivan shartnomasining 2-moddasida bayon qilingan bo‘lib, jumladan quyidagilarni qamrab oladi:

- tomonlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, do‘stlik va yaxshi qo‘sishchilik munosabatlarini mustahkamlash;
- mintaqada va uning tashqarisida tinchlikni ta’minlash va xavfsizlikni mustahkamlash;
- tashqi siyosat masalalari bo‘yicha umumiyl pozitsiyalarni qabul qilish;
- umumiyl maqsadlarga taalluqli barcha sohalarda samarali mintaqaviy va ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish;
- a’zo davlatlar o‘rtasida savdo va investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish;
- qonun ustuvorligini ta’minlash, samarali boshqaruv va inson huquqlarini himoya qilish masalalarini muhokama qilish;
- fan, texnika, ta’lim va madaniyat sohalarida o‘zaro hamkorlikni kengaytirish;
- ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlikni va yanada intensiv muloqotni rivojlantirish;
- huquqiy masalalar bo‘yicha axborot almashinuviga ko‘maklashish.



Havo rangda — a'zo davlatlar, och havo rangda — Kuzatuvchi davlatlar.

Nazariy savollar va topshiriqlar.

1. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy ustuvor tamoyillarini aytинг.
4. O'zbekistonning SHHT bilan aloqalari qanday?
5. O'zbekistonning MDHdagi o'rni va Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari haqida gapiring.
6. O'zbekiston bilan YUNESKO munosabatlari xususida qanday ma'lumotlarga egasiz?
7. Orolni qutqarish bo'yicha Davlatlararo Kengash va xalqaro jamg'armaning tuzilishi haqida ma'lumot bering.
8. Terrorizm insoniyat va taraqqiyot dushmani ekanligini misollar bilan tushuntiring

3-MAVZU: “O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI O'RNNINI YAXSHILASH HAMDA DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARIDA UALAR BILAN TIZIMLI ISHLASHNING YANGI MEXANIZMINI JORIY ETISH” BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATI.

Reja:

- 1.“O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish” borasidagi davlat siyosati,
- 2.Huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo'nalishdagi

ishlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar.

Tayanch tushunchalar: : xalqaro reyting va indeks, tinchlik va xavfsizlik, xorijiy investorlar, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, Global raqobatbardoshlilik indeksi, Biznesni yuritish yengilligi indeksi, Iqtisodiy erkinlik indeksi.

Bugun O'zbekiston mintaqada barcha sohalarda jadal sur'atlarda rivojlanayotgan mamlakat – bu xalqaro ekspertlar tomonidan bildirilayotgan e'tirof. Rivojlanish, taraqqiyot esa o'z-o'zdan bo'lmaydi. Iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda kuzatilayotgan hozirgi o'zgarish va yutuqlar mamlakat rahbari tomonidan ko'tarilgan keng qamrovli chora-tadbirlar hamda ijrochilarining mashaqqatli mehnat mahsuli ekanligi shubhasiz. Bu e'tiroflar, dastlabki yutuqlar o'zimizni albatta. Lekin ularni yanada yaxshilash mamlakat siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir.

Insoniyat taraqqiyoti, barcha sohalarda kechayotgan globallashuv jarayonlar, sifat va tarkibiy o'zgarishlar xalqaro hamkorlik va aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish barobarida har bir mustaqil mamlakatning ushbu holatlarga yangicha qarashga, ular bilan birga odim tashlash vazifasini ko'ndalang qo'ymoqda. Bu esa, eng avvalo, o'sha mamlakatning jahon miqyosidagi o'rni, xalqaro reyting va ko'rsatkichlarda tutgan mavqeい bilan belgilanadi.

Bugun hayotning har bir jabhasida yangilik va bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlarda davom etmoqda. Tabiiyki, bunday yangilanishlar natijasi nafaqat xalqimiz hayotida, balki nufuzli xalqaro reyting va indekslar ko'rsatkichlarida ham o'z ifodasini topayotir.

Aytish kerakki, xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o'zida namoyon etib, davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik kabi muhim jihatlarning ko'zgusidir. Bu jihatlar mamlakatimizdagi islohotlar mohiyatida ham mujassam. Bularning barchasi inson qadrini ulug'lashga,

odamlarning hayotdan rozi va mamnun bo‘lib yashashini ta’minlashga xizmat qilishi bilan yanada teran mazmun kasb etadi.

Prezidentimizning 2020-yil 2-iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi farmoni yurtimizda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim dasturilamal bo‘ldi.

Mazkur farmonga muvofiq, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashi tuzilib, sohada parlament nazorati o‘rnatildi.

Davlatimiz rahbarining «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida»gi Farmoni ana shu sa’y-harakatlarni yangi pog‘onaga olib chiqishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Oqibat natijada mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalardagi jozibadorligini oshirish mezoni bo‘lib xizmat qiladigan xalqaro reyting va indekslarni oshirish jarayonida parlamentning o‘rni qanday bo‘ladi? Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 4 iyun kuni «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash borasida parlamentning, xususan, Qonunchilik palatasining roli» mavzusida o‘tkazilgan seminar ana shu mavzuga qaratildi va Prezident farmoni mazmuni va unda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda parlament oldida turgan masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Jahon banki, Birlashgan millatlar tashkiloti, Birlashgan millatlar tashkilotining Taraqqiyot dasturi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Jahon iqtisodiy forumi, Xalqaro byudjet hamkorligi, INSEAD xalqaro biznes-maktabi va Economist Intelligence Unit kabi xalqaro reyting agentliklari va tashkilotlari bilan rasmiy aloqalar yo‘lga qo‘yildi.

O‘tgan davr mobaynida xalqaro reyting agentliklarining 2019-2020 yillarda chop etilgan hisobotlariga binoan respublikaning iqtisodiy reytinglardagi o‘rni sezilarli darajada o‘sdi. Xususan “Fitch Ratings” va “S&P Global Ratings” xalqaro

reyting agentliklarining bahosiga ko‘ra 2019 yilda mamlakatning suveren kredit reytingi «BB» barqaror darajada saqlanib qolmoqda.

Jahon banki «Biznes yuritish 2020» yangi yillik hisobotida (Doing Business 2020) so‘nggi bir yilda O‘zbekiston Respublikasi biznes islohotini amalga oshirishda eng katta yutuqlarga erishgan 20 ta mamlakat qatoriga kirishga imkon bergen to‘rtta islohotni amalga oshirgani to‘g‘risidagi axborotni tarqatdi. SHuningdek, 2019 yilda O‘zbekiston ushbu reyting hisobotida dunyoning 190 mamlakati orasida 69-o‘rinni egallab, 7 pog‘onaga ko‘tarildi.

2019 yilning sentyabr oyida Jahon bankining Boshqaruv sifati indikatorlarining 2018 yil uchun e’lon qilgan hisobotida O‘zbekiston Respublikasi bir qator indikatorlardan yaxshilanganligini ma’lum bo‘ldi. Xususan, «Korrupsiyani nazorat qilish» indeksida 1 pog‘onaga, «Hukumat samaradorligi» indeksida 3 pog‘onaga, «Normativ sifat» indeksida 7 pog‘onaga, «Qonun ustuvorligi» indeksida 4 pog‘onaga, «So‘z erkinligi va hisobdorlik» indeksida 5 pog‘onaga ko‘tarildi.

Seminarda Prezidentimizning 2020 yil 2 iyundagi Farmoni bilan xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashi tashkil etilayotgani, davlat organlarining birinchi rahbarlari O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash uchun mas’ul qilib belgilangani alohida qayd etib o‘tildi.

SHuningdek, mazkur hujjat bilan Adliya vazirligi markaziy apparati tuzilmasida Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasining tashkil etilishi mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirib borish imkoniyatini yaratishi, bu esa o‘z navbatida ko‘zlangan natijaga erishishda ayni muddao bo‘lishi qayd etildi.

So‘nggi to‘rt yil mobaynida mamlakatimiz Meros jamg‘armasining «Iqtisodiy erkinlik» indeksida 52 pog‘onaga, Jahon bankining «Logistika samaradorligi» indeksida 19 pog‘onaga, «Biznes yuritish» indeksida 18 pog‘onaga ko‘tarilgan.

Xalqaro reyting va indekslar dunyodagi institutsional muhitning sifatini baholashda iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan vositadir. Ular nafaqat ekspertlar, balki davlatlar darajasida ham islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy siyosat mezoni sifatida qo'llanib kelinadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz ko'pgina ustuvor reytinglarda yuqorilab borayotgani yurtimizda aholi turmush farovonligini oshirish, jamiyatimizda ochiqlik, oshkorlikni ta'minlash borasida qilinayotgan ezgu ishlarning muhim natijasidir.

Masalan, yaqinda BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkilotining - (YUNIDO) "Raqobatbardosh sanoat unumdarligi indeksi" bo'yicha hisoboti chop etildi. Unda mamlakatimiz ilk marotaba aks ettirilib, 152 ta mamlakat orasida 92-o'rinni, MDHga a'zo davlatlar orasida 5-o'rinni, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 2-o'rinni egalladi.

Aytish kerakki, bugun jamiyatimizdagи islohotlarning bosh maqsadi xalqimizni rozi qilishdek ezgu maqsadga yo'naltirilmoqda. Barcha sa'y-harakatlarimiz, islohotlarimiz, qabul qilayotgan qonun va qarorlarimiz zamirida ham ushbu maqsad mujassam. Aholi yuritilayotgan siyosatdan qanchalik rozi bo'lsa, turli reyting va indekslardagi o'rnimiz o'z-o'zidan oshib boraveradi.

Xususan, iqtisodiyotda davlatning rolini kamaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan bosqichma-bosqich islohotlar 2020 yilda Juhon bankining "Biznes yuritish" indeksida 76-o'rindan 69-o'ringa ko'tarilishimizga, "Transparency International"ning Korrupsiyani qabul qilish indeksi hamda "World Justice Project"ning Qonun ustuvorligi indeksida mamlakatimiz o'rni yaxshilanishiga olib keldi.

SHu bilan birga, bu yo'nalishda hali qilinishi kerak bo'lган vazifalar talaygina. Prezidentimiz farmoni asosida davlat organlari faoliyati natijadorligini oliy, ya'ni parlament darajasida nazorat qilish belgilanganidan maqsad — bu borada vazirlik va idoralar rahbarlarining mas'uliyatini oshirishdir. SHu bois,

xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash bo‘yicha respublika kengashi tashkil etildi. Oliy Majlis deputatlari va senatorlarining xalq tomonidan saylanishini inobatga oladigan bo‘lsak, mazkur mexanizm sohadagi chora-tadbirlar ijrosi ustidan xalq nazorati o‘rnatilganligini anglatadi.

Endilikda vazirlik va idoralar rahbarlari o‘zлari mas’ul bo‘lgan reyting va indekslarda ko‘rsatkichlarni yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan respublika kengashida hisobot berib boradilar.

Xalqaro reyting va indekslardagi mamlakatimiz o‘rnining yaxshilanishi ko‘p jihatdan qabul qilayotgan qonunlarimizning joylardagi ijrosiga bog‘liq. SHuning uchun ham kengash tarkibiga mahalliy hokimlar kiritildi. Bu esa qonun talablarining joylardagi ijrosi yuzasidan muammolarni vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

SHu orqali bu yo‘nalishdagi ishlarda parlament, vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklarning o‘zaro hamkorligi ta’milanadi, sansalorlik holatlarining oldi olinadi, barcha ishlar muvofiqlashtirilgan holda tashkil etiladi.

Albatta, bu ko‘p vaqt sarflanadigan, progressiv bilimlarni talab etuvchi yangi jarayonlardan biri. Bu, shubhasiz, mas’ul davlat organlarining o‘zlariga biriktirilgan xalqaro reyting va indekslar metodologiyasini izchillik bilan o‘rganish, uni to‘g‘ri talqin qila olgan holda amaliyatga tatbiq eta olish, xalqaro reyting va indeksni beruvchi tashkilot bilan aloqalarni o‘rnata olish bilan bog‘liqdir.

Ochig‘i, barcha vazirlik va idoralar, ayniqsa, joylardagi hokimliklar yoki parlament a’zolarining barchasi ham masalaning tub mohiyatini to‘la anglab etdi, deb aytish mushkul. Yuqorida aytganimdek, reyting va indekslar joylardagi vaziyatga bog‘liq, qonunlarning ijrosiga bog‘liq. Ming afsuski, joylardagi hokimliklar yoki davlat organlari vakillarining ba’zida bilib-bilmay aytgan gapso‘zлari yoki xatti-harakatlari reyting va indekslardagi o‘rnimizga salbiy ta’sir qiladi.

Shu o‘rinda barcha rahbarlar, ular qaysi darajadagi rahbar bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z harakatlarini qonunlarda belgilangan tartibda amalga oshirishlari zarur ekanini yana bir karra ta’kidlamoqchiman. Odamlar bilan muloqotlarda esa inson sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi shart.

Har bir tizimda ishlarimizni samarali tashkil etish maqsadida barcha vazirlik va idoralarda xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash bo‘yicha tarkibiy bo‘linmalar tashkil etilishiga erishdik. Bu esa ishimizni ancha osonlashtiradi. Ajratilgan alohida xodimlar doimiy ravishda o‘zlarining vazirligi yoki idorasi mas’ul bo‘lgan xalqaro reyting va indeks bo‘yicha ish olib boradi.

Xalqaro reyting va indekslarning ahamiyati, oldimizda turgan ustuvor vazifalarni belgilash, reyting agentliklarining metodologiyalarini o‘rganish maqsadida mahalliy hokimliklar hamda vazirlik va idoralar mas’ullari uchun maxsus treninglarni boshladik.

SHu bilan birga, eng asosiy ishimiz qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning amaldagi ijrosini, bir so‘z bilan aytganda, qonun ustuvorligini ta’minlashdir. Bu borada biz parlament va jamoatchilik nazoratini qat’iy yo‘lga qo‘yishga kirishdik va, albatta, ijobiy natijalarga erishamiz.

O‘zbekistonning ushbu xalqaro indekslarda e’tirof etilmaganiga bir necha sabablar bor. Masalan, Juhon iqtisodiy forumining “Global raqobatbardoshlik indeksi”ga mamlakatimizni kiritish masalasi yuzasidan Moliya vazirligi olib borgan muzokaralar natijasida indeksga kirish jarayoni 2 yil muddatni talab etishi ma’lum bo‘ldi.

Birinchi yilda tashkilot tomonidan O‘zbekistonda rasmiy so‘rovnoma o‘tkazish uchun hamkor, ya’ni nodavlat notijorat tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari tanlab olinadi va so‘rovnoma o‘tkaziladi. Ikkinchi yilda so‘rovnoma natijalaridan kelib chiqib, O‘zbekistonning indeksdagi norasmiy o‘rni belgilanadi hamda ularning O‘zbekiston ko‘rsatkichlarining haqiqiy tendensiyalari bilan qay darajada mos kelishi tekshirib ko‘riladi. Tendensiyalar maxsus ekspertlar tomonidan 2 yil mobaynida muntazam kuzatilib boriladi va tahlil qilinadi.

Xalqaro byudjet hamjamiyatining “Byudjet ochiqligi indeksi”ga kirish masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, indeks bo‘yicha mamlakatda tadqiqot o‘tkazish uchun zarur resurslar (jumladan, mablag‘lar) faqatgina xalqaro nodavlat tashkilotlar va institutlar (donorlar) hisobidan amalga oshiriladi.

Hamjamiyatning asosiy talablaridan biri — tadqiqot o‘tkazishdagi mahalliy hamkor sifatida mustaqil fuqarolik jamiyatni institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlar) bo‘lishi zarur. Mazkur indeks hisobotida mamlakatimizni aks ettirish bo‘yicha yakuniy qaror tashkilotning joriy yil avgust oyidagi yig‘ilishida ko‘rib chiqilishiga kelishilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish chekllovlar indeksi”da O‘zbekistonni e’tirof etish maqsadida tuzilma mas’ul rahbarlari bilan muzokaralar o‘tkazildi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan birgalikda “Investitsion siyosat sharhi — O‘zbekiston” nomli hisobotni ishlab chiqish va bu orqali indeksda mamlakat o‘rnini aks ettirish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Kornell universiteti, Xalqaro intellektual mulk tashkilotining “Global innovatsiyalar indeksi”da mamlakatimiz o‘rnini aks ettirish masalasida Innovatsion rivojlanish vazirligi muzokaralar o‘tkazmoqda. Hozir ushbu indeksda talab etilgan zarur statistik ma’lumotlarni jamlash bo‘yicha hamkorlikda ishlar yo‘lga qo‘yilgan.

Albatta, bunday ma’lumotlar turli axborotnomalar shaklida tegishli tashkilotlar, xususiy investorlar hamda xalqaro ekspertlarga jo‘natilmoqda. SHuningdek, ular vazirliklarning rasmiy veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida ham keng jamoatchilik e’tiboriga havola etib borilmoqda.

Bundan tashqari, ayrim reyting va indekslarda talab etilgan statistik ma’lumotlar respublikamizning davlat idoralari va tashkilotlari tomonidan shakllantirilgan statistik ma’lumotlar bazasiga asoslanadi.

Masalan, BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”da jami 206 ta milliy indikator tasdiqlangan. Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan yaratilgan maxsus saytga bu boradagi zarur ma’lumotlar doimiy ravishda joylashtiriladi. SHuningdek,

xalqaro reyting va indekslar uchun kerakli ma'lumotlar davlat idoralari tomonidan muntazam yangilanib boriladi.

Misol uchun, hukumat portalı doirasida “Ochiq ma'lumotlar portalı” ishga tushirilgan. Mazkur portal Davlat statistika qo'mitasining davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar bazasi yuritilishi va yangilanishi, shuningdek, tegishli axborotlarning o'z vaqtida aks ettirilishini muvofiqlashtirib kelmoqda.

Umuman olganda, xalqaro reyting va indekslarni yurituvchi tashkilotlar tadbirkorlar va aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalari natijalariga, nodavlat notijorat tashkilotlar ma'lumotlariga hamda milliy va xorijiy ekspertlar xulosalariga tayanadi. Bu esa, o'z navbatida, respublika miqyosida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohadagi islohotlar va ularning natijalaridan mahalliy aholi va tadbirkorlar qay darajada xabardor ekanini ko'rsatib beradi.

Asosan, siyosiy-huquqiy reyting va indekslarda mamlakatimiz o'rirlari nisbatan quyi pog'onalarda. Masalan, So'z erkinligi va hisobdorlik indeksida 191-o'rinda, Normativ sifat indeksida 184-o'rinda, Korrupsiyani nazorat qilish indeksida 183-o'rinda, Qonun ustuvorligi indeksida 182-o'rinda, Juhon matbuot erkinligi indeksida 156-o'rinda turibmiz. Albatta, so'nggi 3-4 yil mobaynida ushbu sohalarni tartibga soluvchi ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi, turli institutsional o'zgarishlar ro'y berdi.

Xususan, mamlakatimizda so'z erkinligi hamda ommaviy axborot vositalarining cheklov va to'siqlarsiz faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Ommaviy axborot vositalari uchun media bozorida teng sharoit yaratish va ularni yanada rivojlantirish hamda jurnalist va blogerlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohadagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Bu boradagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etish, turli organlar va tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida

Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tashkil etildi. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini yurituvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzildi.

Qator sohalardagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq qonunchilikning jadal rivojlanishi ayrim hollarda amaldagi qonun hujjalariiga zid bo‘lgan ko‘plab normalarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun ham qonunchilikni tubdan qayta ko‘rib chiqish, uni tizimlashtirish, normativ-huquqiy hujjalarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari sifatini oshirish, ijrosi monitoringini takomillashtirish maqsadida Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiysi ishlab chiqildi.

Biroq shuncha ishlarga qaramay, indekslardagi ko‘rsatkichlar bu borada hali kamchiliklarimiz borligini ko‘rsatib turibdi. SHu bois, qator muhim vazifalarni belgilab olganimiz. Eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishimiz zarur bo‘ladi.

Shuningdek, davlat organlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy baholash tartibini belgilash va davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha reytingini shakllantirishni yo‘lga qo‘ymoqchimiz.

Shu bilan birga, mamlakatimizning Korrupsiyaga qarshi davlatlar guruhi (GREKO) xalqaro tashkilotiga a’zo bo‘lishi va bu tashkilotning korrupsiyaga qarshi tegishli konvensiyalari talablarini milliy qonunchiligidan implementatsiya qilish masalasini ham o‘rganib chiqishimiz lozim.

Ommaviy axborot vositalari, fikrlar xilma-xilligi va so‘z erkinligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashimiz zarur. Ayniqsa, jurnalistning qonuniy professional faoliyatiga to‘sinqilik qilishga oid huquqbazarliklarga nisbatan javobgarlikni belgilashimiz kerak.

Respublikaning siyosiy-huquqiy reyting va indekslarda quyi pog‘onalardan joy olganligining sabablaridan yana biri mazkur reyting va indekslar, asosan, jamoatchilik fikri va xalqaro ekspertlar xulosasi asosida shakllantirilishidadir. Qolaversa, indeks yurituvchi tashkilotlar so‘rovnomalari faqatgina mustaqil fuqarolik jamiyati institatlari (nodavlat notijorat tashkilotlar) bilan hamkorlikda

o‘tkazilishini inobatga olib, respublika miqyosida bunday tashkilotlar kamligi hamda ular tomonidan tadqiqot ishlarini amalga oshirish salohiyati cheklanganligi kabi omillar ham bunga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu o‘rinda alohida qayd etishimiz zarur, har bir davlat organi, ayniqsa, respublika darajasidagi vazirlik, idora, tashkilotlar huzurida nodavlat notijorat tashkilotlar vakillaridan iborat jamoatchilik kengashlari tuzilib, ular bilan yaqin hamkorlik o‘rnatilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Albatta, O‘zbekiston umumiy reytingda 6 ta pog‘onaga pasaydi. Lekin reytingni shakllantiruvchi komponentlar bo‘yicha birmuncha o‘sish kuzatilgan. Masalan, ushbu reytingning “Inson kapitali”, “Elektron ishtirok” va “Telekommunikatsiya infratuzilmasi” indekslari bo‘yicha ko‘rsatkichlar 0,01 dan 0,14 punktgacha oshgan.

“Elektron ishtirok” indeksi bo‘yicha respublikamiz o‘zining ko‘rsatkichini 0,80 punktgacha oshirib, umumiy reytingdagi o‘rnini 13 pog‘onaga ko‘tardi va 46-o‘rinni egallab, elektron ishtirok indeksining juda yuqori rivojlanish darajasiga ega mamlakatlar ro‘yxatiga kirdi. Vaholanki, 2018 yilda ushbu indeks bo‘yicha mamlakatimiz 59-o‘rinda edi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonga ochiq ma’lumotlar bo‘yicha eng yuqori ball berildi. Albatta, “Elektron hukumatni rivojlantirish” reytingidagi o‘rnimiz pasayishiga ayrim omillar ta’sir qildi. Eng avvalo, ta’kidlash joizki, 2018 yildan joriy yilning aprel oyiga qadar respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va “Elektron hukumat” tizimini joriy etishda yagona muvofiqlashtiruvchi organ mavjud bo‘lmagan. Natijada reytingni oshirish bo‘yicha aniq belgilangan chora-tadbirlar rejasidagi qabul qilinmagan va tegishli ishlar etarli darajada tashkil etilmagan. Hozir Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ushbu ishga mas’ul etib belgilangan.

Shuningdek, milliy elektron xizmatlar portali hamda ta’lim, mehnat, ijtimoiy xizmatlar, sog‘liqni saqlash, moliya va atrof-muhit sohalaridagi tegishli vazirlik va idoralarning veb-saytlari ham talabga to‘liq javob beradi, deb ayta olmaymiz. Ushbu saytlar reytingning “Elektron xizmatlar” komponentida 148 ta jihat

bo‘yicha baholab boriladi. Milliy onlayn xizmatlar portali va rasmiy veb-saytlarning mobil qurilmalardan foydalanish uchun moslashgan shakllari etarli darajada joriy etilmagan.

Shuningdek, tranzaksiya xizmatlari darajasining pastligi, davlat bojlari, turli yig‘imlar va jarimalarni to‘liq elektron tarzda to‘lash ham oxiriga etmaganligi reytingdagi o‘rnimizga salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Reytingning “Inson kapitali” komponenti bo‘yicha ham ishlashimiz kerak bo‘lgan ayrim kamchiliklar bor. Masalan, masofaviy o‘qitish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanimayotgani, oliy ma’lumotga ega aholi qatlami bo‘yicha aniq ma’lumotlar etarli emasligi reytingdagi o‘rnimizga ta’sir qilmoqda.

Mobil aloqa abonentlari, internet foydalanuvchilari ulushini begilaydigan “Telekommunikatsiya infratuzilmasi” komponentida esa respublikaning uzoq hududlariga yuqori tezlikdagi simli internet tarmog‘i etib bormaganligi ham reytingdagi o‘rnimizga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda.

Bu kamchiliklarni to‘g‘rilash bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilab olganmiz. Umid qilamizki, navbatdagi hisobotlarda ushbu yo‘nalishda mamlakatimiz o‘rni yanada yaxshilanishiga erishiladi.

Nazorat savollari:

1. O‘zbekiston Qonun ustuvorligi indeksida nechanchi o‘rinda?
2. O‘zbekiston Jahon matbuot erkinligi indeksida nechanchi o‘rinda?
3. 2019 yilda O‘zbekiston iqtisodiy reyting hisobotida dunyoning 190 mamlakati orasida nechanchi pog‘onaga ko‘tarildi?
4. 2019 yilda O‘zbekiston ushbu reyting hisobotida dunyoning 190 mamlakati orasida nechanchi o‘rinni egallagan?
5. O‘zbekiston «Korrupsiyani nazorat qilish» indeksida nechanchi pog‘onagani egallagan?

4-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI UCHUN USTUVOR BO'LGAN XALQARO REYTING VA INDEKSLAR BO'YICHA SAMARADORLIKNING ENG MUHIM KO'SATKICHLARINI OSHIRISH BORASIDA OLIB BORILAETGAN CHORA-TADBIRLAR.

Reja:

1.Ushbu ko'rsatkichlarni oshirish uchun O'zbekiston Respublikasida quyidagi suveren indeks va indikatorlar tizimiga integrasiyalashuv jarayonlari jadallashtirilmoqda:

2.“Biznes yuritish” indeksi, Boshqaruv sifati indikatorlari, Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi, “Korrupsiyani qabul qilish” indeksi, “Logistika samaradorligi”indeksi,

3.Jahon banking Statistik salohiyat indeksi, Iqtisodiy erkinlik indeksi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqièt tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi, Inson kamoloti indeksi,

4.Huquq ustuvorligi indeksi, Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi, Matbuot erkinligi indeksi va boshqalar.

Tayanch tushunchalar: *Sanoat raqobatbardoshliligi indeksi, Inson salohiyati rivojlanishi indeksi, Transchegaraviy investitsiyalash indikatorlari, to 'g'ridan to 'g'ri xorijiy investitsiyalarini tartibga solish indeksi, to 'g'ridan to 'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorlik indeksi, «Standard and Poor's», «Moody's», «Fitch Ratings» agentliklari.*


Insoniyat taraqqiyoti, barcha sohalarda kechayotgan globallashuv jarayonlari, sifat va tarkibiy o'zgarishlar xalqaro hamkorlik va aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish barobarida har bir mustaqil mamlakatning ushbu holatlarga yangicha qarashga, ular bilan birga odim tashlash vazifasini ko'ndalang qo'yemoqda. Bu esa, eng avvalo, o'sha mamlakatning jahon miqyosidagi o'rni, xalqaro reyting va ko'rsatkichlarda tutgan mavqeい bilan belgilanadi.

Bugun hayotning har bir jabhasida yangilik va bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlarda davom etmoqda. Tabiiyki, bunday yangilanishlar natijasi nafaqat xalqimiz hayotida, balki nufuzli xalqaro reyting va indekslar ko'rsatkichlarida ham o'z ifodasini topdi.

Aytish kerakki, xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o'zida namoyon etib, davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik kabi muhim

jihatlarning ko‘zgusidir. Bu jihatlar mamlakatimizdagi islohotlar mohiyatida ham mujassam. Bularning barchasi inson qadrini ulug‘lashga, odamlarning hayotdan rozi va mamnun bo‘lib yashashini ta’minlashga xizmat qilishi bilan yanada teran mazmun kasb etadi.

Xalqaro hamjamiyatning to‘la huquqli a’zosi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat sifatida faoliyat ko‘rsatib, mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o‘z hududini qurol-yarog‘lardan holi qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg‘in quollarini yo‘qotish, suveren davlatlar o‘rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo‘l qo‘ymaslikdan iborat bo‘lgan maqsadlarni ko‘zlagan holda tashqi siyosat olib bormoqda.



Shu o‘rinda qayd etish kerakki, mustaqil O‘zbekiston tashqi siyosatining asosini ochiq-oydinlik, teng huquqlilik, demokratik prinsiplarga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarini ulug‘lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta’sir qilish kabilar tashkil etadi. Shuningdek, Respublika tashqi siyosati tinchlik va xavfsizlik uchun umumjahon e’tirof etgan ochiq yakdillik talablariga

asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi jarayonida ko‘plab xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘ldi, xalqaro huquqiy tashabbuslari jahon hamjamiyati oldida turgan mintaqaviy va global muammolarni hal etishga qaratilib, O‘zbekiston tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish borasida katta ishlarni amalga oshirdi.

Bu jarayonda mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlarni dunyo miqyosida e’tirof etilishi borasida ham samarali ishlar qilindi va davom ettirilmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash muhimki, ko‘plab xorijiy ommaviy axborot vositalarida dunyo mamlakatlarining iqtisodiy ko‘rsatkichlari, xalqlarning turmush darajasi yoki yashash uchun eng xavfsiz davlatlar kabi reytinglar muntazam e’lon qilib boriladi, tahlil va taqqos qilinadi.

Inson huquqlari himoyasini kafolatlash, aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiy faoliyatda erkinlikni ta’minalash, sud-huquq sohasidagi moddiy va protsessual normalarni takomillashtirishga qaratilgan islohotlar har qanday mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshiradi. Zero, mazkur yo‘nalishdagi islohotlar mamlakat taraqqiyoti, xalq farovonligini belgilab beruvchi muhim omillardan hisoblanadi.

Ammo islohotlarning ijobiy natijalari, xalqning erishgan va erishayotgan yutuqlarini dunyo hamjamiyati e’tiboriga taqdim etish alohida chora-tadbirlarni, maqsadli sa’y-harakatlarni talab etishini ta’kidlash kerak. Bu jarayonlarda xalqaro reyting agentliklarining xizmati katta.

To‘g‘ri, har qanday davlat ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o‘tkazar ekan, birinchi o‘rinda aholi turmushi farovonligini oshirish, huquq va manfaatlarini ta’minalash, mamlakatning xalqaro miqyosdagi nufuzini mustahkamlashni asosiy maqsad qilib belgilab oladi. Mamlakatlarning ana shu iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda erishgan yutuqlarini hamda insonlarning haq-huquqlari ta’milanishi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarini turli reyting agentliklari baholab boradi, ular ijobiy yoki salbiy o‘zgarishlarni aslo e’tiborsiz qoldirmaydi.

Chunki xalqaro hamjamiyatning e'tiborini, xorijiy investorlarning qiziqishini qozonish ko'p hollarda nufuzli xalqaro reyting agentliklarining baholariga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi davrda xorijiy reytinglar xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi o'ziga xos omillardan hisoblanadi. Mustaqil ekspertlar xulosasi aks etgan reytinglar mamlakat xalqaro imijiga, kirib kelayotgan investitsiyalar miqdoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, rivojlanib borayotgan va o'z iqtisodiyotiga sarmoyalarni jalg qilishdan manfaatdor bo'lgan davlatlar mazkur reytinglarga kirish va o'z o'rnini bosqichma-bosqich ko'tarib borishga alohida e'tibor qaratmoqda. Keyingi yillarda Sharqiy Yevropa hamda MDHga a'zo ayrim mamlakatlar eng nufuzli xalqaro reytinglarda yuqori darajaga ega bo'lish bo'yicha maxsus dasturlar asosida ish olib borayotgani ma'lum. Zero, har qanday chet elliq investor muayyan qarorga kelishdan avval o'zi qiziqayotgan davlatning iqtisodiy holati to'g'risidagi obyektiv, mustaqil baholarni sinchiklab o'rganib chiqadi.



Ushbu QR-kod orqali 2020-yil 2-iyunda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida»gi farmon bilan tanishishingiz mumkin.

Prezidentimizning 2020-yil 2-iyunda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida»gi farmoni yurtimizda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim dasturilamal bo'ldi.

Qayd etish kerakki, xalqaro reytinglarni tuzuvchi agentliklar iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarni baholashda turli usullardan foydalanadi. Shu boisdan investorlar o'z tahlillarida faqatgina bitta reyting agentligining ma'lumotlariga tayanib qolmasdan, bir qancha reyting ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilishga



harakat qiladilar. Ma'lumotlarga ko'ra, hozir jahonda 160 dan ortiq xalqaro reyting mavjud, ulardan 50 taga yaqini ta'sir darajasi yuqori mezonlar sirasiga kiradi.

Global raqobatbardoshlilik indeksi, Biznesni yuritish yengilligi indeksi, Iqtisodiy erkinlik indeksi, Sanoat raqobatbardoshliliqi indeksi, Global innovatsion indeks, Inson salohiyati rivojlanishi indeksi, Transchegaraviy investitsiyalash indikatorlari, To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish indeksi, To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorlik indeksi shular jumlasidandir. Ana shu kabi asosiy xalqaro reytinglar va indekslarda O'zbekistonning ham munosib o'rnlarda bo'lishi ulkan ahamiyatga ega.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Xalqaro reytinglar tizimiga integratsiyalashuvidan ko'zlangan asosiy mezon va maqsadlarga to'xtaladigan bo'lsak, bu masala yuzasidan qator fikr va mulohazalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirzieyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish doirasida ham yuritilgan edi. Xususan, O'zbekistonning global raqobatbardoshlik reytingi va boshqa xalqaro reytinglarda qatnashishi va unda mamlakatimizning egallagan o'rnini yaxshilab borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, mamlakatda qulay biznes va investitsion muhitni shakllantirish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, qonunchilikning amaliyotga tatbiqi ustidan kuchli parlament va deputatlik nazoratini o'rnatish va boshqa vazifalar belgilangan edi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, reytinglar ichida eng mashhurlari, investitsiya jalg qilinishida muhim o'rin tutadiganlaring sirasiga «Standard and Poor's», «Moody's», «Fitch Ratings» agentliklari hamda yirik auditorlik va konsalting kompaniyalari tomonidan e'lon qilib boriladigan baholash mezonlarini

ham kiritish mumkin. Hozirgi kunda yuqorida qayd etilgan agentliklar tomonidan e’lon qilinadigan suveren kredit reytingiga O’zbekistonning ham kiritilishi bo‘yicha ishlar olib borilyapti. Biroq bu ishlarni hozircha qoniqarli deb bo‘lmaydi.

Aytaylik, bir qator indekslar bevosita investitsion faoliyat bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni e’lon qiladi. Jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar indeksi (FDI index) 62 ta mamlakatda 22 sohani o‘z ichiga qamrab olgan holda qonunchilik tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning kirib kelishiga to‘sinqilik qiluvchi omillarni tahlil etadi. To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning ishonchilik darajasini ko‘rsatuvchi «FDI Confidence» indeksi global konsultatsion kompaniya bo‘lmish «A.T.Kearney» tomonidan belgilanib, 40 ta mamlakat bo‘yicha tahlillarni reyting ko‘rinishida chop etadi. Afsuski, mazkur indekslardan o‘rin olgan davlatlar qatorida hozircha mamlakatimiz yo‘q. Bu esa yurtimizga potensial investorlarning kirib kelishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakat ichkarisida investitsion muhit qanchalik qulay va jozibador bo‘lmasin, uning xalqaro maydondagi targ‘iboti yetarli darajada bo‘lmas ekan, bir joydadepsinib turilaveradi.

2017–2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasida mamlakatimizning xalqaro maydondagi mavqeyini ko‘tarish, ko‘rsatkichlarning xolis va haqqoniy baholanishini ta’minalash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2020-yil 25-fevraldagagi «O’zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashning yaxlit va mustaqil tizimini shakllantirish, shuningdek, respublikamizning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilashni ta’minalash yo‘llari atroflicha belgilab berildi.

Mazkur hujjatga muvofiq boshqa vazifalar qatorida 3 ta asosiy yo‘nalishda ish olib borilayotgani alohida e’tiborga molik. Ya’ni:

1. O’zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o‘rnini monitoring qilish va baholash milliy tizimi, ya’ni Milliy monitoring tizimi yaratilishi.

2. Ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yaxshilash, aholining davlat organlari faoliyatidan qoniqishi darajasini hamda ularning xodimlari kasbiy mahoratini oshirish maqsadida «davlat xizmatlarining sirli mijozsi» instituti joriy etilishi.

3. «O'zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda» yagona portalining



yaratilishi esa ushbu yo'nalişda samarali muloqot va axborot almashinuviga xizmat qiladigan imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

Shu yilning 2020-yil 5-fevral kuni davlatimiz rahbari «Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzolagan edi. Unda mamlakatimizni xorijlik investorlar uchun yanada jozibador hududga aylantirish, yurtimizning xalqaro maydonidagi nufuzi va investitsion imijini keskin yuksaltirishga xizmat qiladigan vazifalar bayon etilgan. Qarordan kelib chiquvchi asosiy strategik maqsad mamlakatda 2022-yilgacha Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» hisobotidagi jahon mamlakatlarining birinchi yigirmataligi darajasiga mos keladigan qulay shart-sharoitlarni yaratishdir.

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ХАЛҖАРО РЕЙТИНГЛАРДАГИ КЎРСАТКИЧЛАРИ



Mazkur qarorda ta'kidlanganidek: «So‘nggi bir necha yillar davomida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish sohasida normativ-huquqiy hujjatlar bazasini va tartibga solish jarayonlarini takomillashtirishga, qulay biznes muhitini va xalqaro maydonda mamlakatning ijobiy nufuzini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rildi. Oxirgi 5 yil davomida ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida Juhon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» reytingida O‘zbekiston jahoning 190 ta mamlakati orasida 146-o‘rindan 76-o‘ringa ko‘tarildi. Shu bilan birga, amaliyotda, xususan, qurilishga ruxsatnomalar olishda, mulkni ro‘yxatdan o‘tkazishda va tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlari duch kelayotgan ortiqcha byurokratik tartib-taomillar hanuzgacha saqlanib qolmoqda». Anglashilmoxdaki, O‘zbekiston 2022-yilga qadar yana kamida 56 pog‘ona yuqorilashi kerak.

Shu o‘rinda mavzuga oid yana bir ma’lumotni keltirib o‘tish maqsadga muvofiq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2018-yil 13 iyuldagagi «Juhon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotida: «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda eng muhim xalqaro reytinglarni va tarkibiy indikatorlarni, ularni shakllantirish metodologiyasini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslarda oxirgi ikki yilda egallab turgan mavqeyini chuqur o‘rganishning ta‘minlanishi», - deya qayd etilgan edi.

Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillar mobaynida O‘zbekistonda hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan ulkan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bularning barchasi xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, xalqaro reyting agentliklari o‘z indekslarida O‘zbekistonni yuqori o‘rinlarda qayd eta boshlayotgani mustaqillik yillarida birinchi bor kuzatilmoqda. Bu davlatimiz uchun, xalqimiz uchun juda katta yutuq. Masalan, O‘zbekiston Meros jamg‘armasining «Iqtisodiy erkinlik» indeksida 52 pog‘onaga, Juhon bankining «Logistika samaradorligi» indeksida 19 pog‘onaga, «Biznes yuritish» indeksida 18 pog‘onaga ko‘tarildi.


O‘zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining «Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash» tizimidagi 6-guruh davlatlari qatoridan 5-guruh mamlakatlari qatoriga ko‘tarilgani ham mazkur o‘zgarishlar natijasidir. Xalqaro reytinglarda yuqori o‘rnlarni olish dunyo hamjamiyatining mamlakatimizga bo‘lgan e’tibori, chet el investorlarining qiziqishini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Demak, bu masalaga jiddiy qarash kerakligini hayotning o‘zi talab etadi. Ammo, ayrim sohalarda reytinglar bilan ishlashga yetarlicha e’tibor qaratilmayotgani va xalqaro tashkilotlar tomonidan o‘tkazilayotgan so‘rovlarda aksariyat islohotlar o‘z aksini topmayotgani oqibatida yetakchi xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston hamon quyi pog‘onalarda qolmoqda.

Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro maydondagi imijini mustahkamlash, davlat organlari va tashkilotlarida xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashning yangi mexanizmlarini joriy qilish, shuningdek, 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsad qilingan.

Hujjatda bu boradagi aniq vazifalar belgilab berilgan. Natijada xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashi tashkil etildi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot darajasini tizimli tahlil qilib borish, turli sohalarda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarning O‘zbekiston uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatimizning o‘rnini yaxshilashga xizmat qilishini ta’minlash, mazkur yo‘nalishdagi ishlarga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish mazkur kengashning asosiy vazifalari etib belgilandi.

Qolaversa, O‘zbekiston uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslarda



mamlakatning o‘rnini yaxshilash maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini takomillashtirish, jamiyatni demokratlashtirish, ilg‘or xalqaro tajribaga asoslangan davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha tashabbuslarni ilgari surish ham Kengash oldidagi asosiy vazifa sifatida belgilab berildi. Shuningdek, Kengashning asosiy vazifalari qatorida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot darajasini tizimli tahlil qilib borish, amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o‘rnini yaxshilash maqsadlariga xizmat qilishini ta’minlash belgilangan.

Binobarin, bundan buyon davlat va jamiyat hayotining turli jabhalarini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalari O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rniga ta’siri nuqtayi nazaridan kompleks baholab boriladi.

Kengash O‘zbekiston uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o‘rnini yaxshilashga qaratilgan ta’sirchan choralar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi hamda ushbu yo‘nalishda tizimli xalqaro hamkorlik olib borilishini nazorat qilib boradi.

Mutasaddi vazirlilik va idoralar o‘zлari mas’ul bo‘lgan reyting va indekslarning e’lon qilinishi xalqaro reyting va indekslarning reyting va indekslarni e’lon qiluvchi tashkilotlar hamda ularni tuzishda foydalaniladigan axborot manbalari bilan hamkorlik qilish mexanizmlari nazarda tutiladi. Bu jarayonda Jahon iqtisodiy forumining Global raqobatbardoshlik indeksida O‘zbekistonning o‘rnini aks ettirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanadi.

Dunyoning nufuzli reyting agentliklari e’lon qilib borayotgan mazkur reyting ko‘rsatkichlari ushbu ro‘yxatda ishtirok etayotgan mamlakatlarning xalqaro maydondagi obro‘sini ham belgilab beradi. Unda yuqori o‘rinlarni olgan mamlakatlarga investitsiyalar, ilg‘or texnologiyalar, yangi g‘oyalar ham oqib kelishi barchaga ma’lum.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash bo‘yicha tashkil etilgan respublika kengashi Parlament nazorati ostida bo‘ladi.

Senat raisi Kengashga rahbarlik qiladi. Bundan tashqari Kengash ishchi organlari sifatida Moliya vazirligi va Adliya vazirligi belgilangan. Ular mos ravishda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy –huquqiy reytinglar bo‘yicha ish olib borishadi.

Shuningdek, «O‘zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda» yagona portalı ham ishga tushiriladi. Kengash ishchi organlari Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda portal faoliyatining uzluksiz ishlashini ta’minlash va uni yangilab borish uchun mas’ul etib belgilandi.

Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashining asosiy vazifasi ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston o‘rnini quyidagilar orqali yaxshilashdan iborat:

1. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot darajasini tizimli tahlil qilib borish, turli sohalarda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarni hisobga olish, shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish;
2. Davlat hokimiysi va boshqaruvi tizimini takomillashtirish, jamiyatni demokratlashtirish, ilg‘or xalqaro tajribaga asoslangan davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha tashabbuslarni ilgari surish;
3. Davlat va jamiyat hayotining turli jabhalarini tartibga solishga qaratilgan NHH va ularning loyihibalarini mamlakatimizning o‘rniga ta’siri nuqtayi nazaridan kompleks baholab borish.

Nº	Xalqaro reyting va indekslar	2017	2018	2019	o'sishG' pasayish
1.	Biznes yuritish indeksi	76	76	69	Q 7
2.	Iqtisodiy erkinlik indeksi	148	152	140	Q 12
3.	IHTT Mamlakatlarga xos xatarlar kredit reytingi	6-guruh	6-guruh	5-guruh	Q 1
4.	Statistik salohiyat indeksi *	118	116	-	Q 2
5.	Inson taraqqiyoti indeksi *	107	105	-	Q 2
6.	Jahon matbuot erkinligi indeksi	169	165	160	Q 5
7.	Korruptsiyani qabul qilish indeksi *	157	158	-	- 1
8.	Demokratiya indeksi *	158	156	-	Q 2
9.	Suveren kredit reytinglar	-	VV-	VV-	-
10.	Boshqaruv sifati indikatorlari:				
	Siyosiy barqarorlik va zo'ravonlik G' terrorizmning yo'qligi indeksi *	131	136	-	- 5
	Hukumat samaradorligi indeksi *	141	139	-	Q 2
	Normativ sifat indeksi *	191	184	-	Q 7
	Qonun ustuvorligi indeksi *	186	182	-	Q 4
	Korruptsiyani nazorat qilish indeksi *	184	183	-	Q 1
	So'z erkinligi va hisobdorlik indeksi *	197	191	-	Q 6

* Izoh: Reytinglar 2019 yilda 2018 yil uchun baholangan.

O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning eng muhim ko'satkichlari yuqorida ko'rsatilgan.

Ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha mamlakatimizning o'rnini yaxshilash – mas'ul davlat organlari birinchi rahbarlarining faoliyatini samaradorligini baholashning bosh mezonlaridan biri. U bo'yicha eng muhim ko'rsatkichlar (KPI) belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish» borasidagi davlat siyosati, huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo'nalishdagi ishlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf

etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar keng ko‘lamli bo‘lib, birinchi navbatda respublikada olib borilayotgan islohotlarning natijasini jahon miqyosida e’tirof etishga qaratilgan bo‘lsa, eng asosiysi bu harakatlar xalqning farovonligi va turmush tarzining yaxshilanishi va haq-huquqlarining himoya qilinishi tizimining yanada yuqori saviyaga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar nafaqat ichki tartib-qoidalar, ya’ni tegishli hukumat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan, balki jahonda tan olingan xalqaro reyting va indekslarning (mustaqil) identifikatorlaridagi reytinglari asosida baholanib boriladi.

Bu esa o‘z navbatida O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonini tezlashtirishga, dunyo miqyosida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarda olib borilayotgan islohotlarning amaldagi natijalarini yaqqol ko‘rsatishga xizmat qilib, rivojlangan davlatlarning respublikaga turli ko‘rinishdagi investitsiyalar kiritish imkonini kuchaytiradi.

Nazariy savollar va topshiriqlar.

1. Xalqaro reyting va indekslar deganda nimani tushunasiz?
2. Xalqaro reyting va indekslarning talab va mezonlari nimadan iborat?
3. Xalqaro reyting va indekslarning dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’siri nimalarda ko‘rinadi?
4. O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi jarayonida qanday xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘ldi?
5. Xalqaro reyting agentliklarining baholanish mezonlarini aytинг?
6. Sharqiylar hamda MDHga a’zo ayrim mamlakatlarning eng nufuzli xalqaro reytinglardagi o‘rni va roli nimalarda ko‘rinadi?

IV AMALIY MASHHULOT MATERIALAR

1-amaliy mashg‘ulot: O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi.

Reja:

- 1.O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining BMTga a’zo bo‘lishi va jahon hamjamiyatidagi o‘ziga xos o‘rni.
- 3.O‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va mavqeining oshib borishi.
- 4.O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari. O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari.
- 5.Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiysi. O‘zbekiston tashqi siyosatida Rossiya, AQSh, Xitoy mamlakatlarining o‘rni.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari. Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan - “Veen diagrammasi”, “Konseptual jadval” interfaol usullaridan foydalaniladi.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:



1-topshiriq: Mustaqil O'zbekiston Respublikasini geografik chegaralang.

2-topshiriq: O'zbekiston Respublikasining dunyodagi nufuzli tashkilotlariga a'zo bo'lib kirishi va hamkorlikning namunalari nimadan iborat.

3-topshiriq: O'zbekiston Respublikasiningxorij mamlakatlari bilan madaniy-ma'rifiy sohadagi hamkorlik namunalari.

4-topshiriq: O'zbekiston va YuNESKO: hamkorlik va natijalar



5-topshiriq: YuNESKO tashabbuskorligi bilan O'zbekistonda o'tkazilgan tarixiy ahamiyatga molik anjumanlar va ularning ahamiyati.

ЮНЕСКО Ўзбекистонда

ЮНЕСКОнинг Ўзбекистондаги Вакалатхонаси Ташкилотнинг Ўзбекистондаги вакиллиги ҳисоболаниб, ўз малакаси ва ваколати доирасида мамлакатнинг тараққиёт соҳасидаги саъй-ҳаракатларини қўллаб-қувватлашда эксперт кўмакни кўрсатади. ЮНЕСКО ўзининг фаолиятини БМТ Агентликларининг Ўзбекистондаги Мамлакат Гуруҳи аъзоси сифатида мамлакатдаги тараққиёт жараёнинг кўп томонлама ва икки томонлама қатнашчилари билан ҳамкорлик алоқаларини ўрнататиш орқали амалга оширади. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Агентликларининг Мамлакатдаги Гуруҳи таркибига Ўзбекистонда иш юритаётган БМТ вакиллари, унинг 14та ихтисослашган агентликлари ва дастурлари киради.

ЮНЕСКО тинчликни ўрнатиш, қашшокликни камайтириш, барқарор ривожланиш ва маданиятлараро мулоқотни қўйидагилар орқали тарғиб қиласди:

- Таълим;
 - Табиий ва ижтимоий фанлар;
 - Маданият;
 - Коммуникация ва ахборот;
- * Ўзбекистон ЮНЕСКОга 1993 йилда аъзо бўлди. ЮНЕСКОнинг Ўзбекистондаги Вакалатхонаси эса 1996 йилда очилди.

6-topshiriq: YuNESKOning ta’lim va madaniyat sektorlarining O’zbekiston bilan sohaga oid hamkorligi.

Таълим. Ҳамкорлар

Таълим сектори Ўзбекистондаги қўйидаги тузилмалар билан яқин ҳамкорлик қиласди :

- БМТ, ЮНИСЕФ ва Ўзбекистондаги тараққиёт бўйича бошقا фаол ҳамкорлар
- Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги
- Халқ таълим вазирлиги
- Мактабгача таълим вазирлиги
- Инновация вазирлиги
- Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги
- Қишлоқ хўяжалиги вазирлиги
- Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси
- Давлат тест маркази
- Республика таълим маркази
- Педагогик ўқув юртлари
- Университетлар ва илмий-тадқиқот институтлари

Маданият ва Барқарор ривожланиш мақсадлари

ЮНЕСКО маданият соҳасида алоҳида ваколатга эга бўлган ягона БМТ ташкилотидир. ЮНЕСКО маданиятнинг кучли компонентисиз барқарор ривожланишини қўриб бўлмаслигига амин. Фақатгина маданиятлар ўртасидаги ўзаро ҳурмат ва очиқ мулоқотга асосланган барқарор ривожланишга кўн дисциплинар ёндашувгина мустаҳкам, инклузив ва адолатли натижаларга олиб келиши мумкин.

Маданият бир вақтнинг ўзида барқарор ривожланиш иктиносидӣ, ижтимоий ва экологик ўлчовларинг ҳам воситаси, ҳам ҳаракатлантирувчи кучидир.

Маданият сектори қўйидаги мақсадлар сари ҳаракат қиласди: 4 БРМ (Сифатли таълим), 8 БРМ (Муносаби маданият ва иктиносидӣ ўсиш) ва "дунёнинг маданий ва табиий мөрсими мухофаза қилиш ва сақлаб қолиш саъй-ҳаракатларини кучайтириш"га қаратилган 11.4 мақсад.



2-amaliy mashg‘ulot:O‘zbekistonning geosiyosiy va geoiqtisodiy o‘rni.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi quyidagi masalalarni o‘rganish, tahlil qilish va belgilangan topshiriqlarni bajarish.

1.Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O‘zbekiston Respublikasining faolligi.

2.O‘zbekistonning SHHT bilan aloqalari. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari bilan yangi strategik sherikchilik shartnomalarining imzolanishi.

3. Turkiy davlatlar tashkiloti va uning mintaqadagi o‘rni va ahamiyati.

Amaliy mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “**Klaster**” interfaol usulidan foydalilanildi. Bunda asosan tayanch tushunchalarga e’tibor qaratiladi.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1-topshiri. Quyidagi tayanch tushunchalarga izoh bering): tashqi siyosat, O‘zbekistonning geosiyosiy holati, Markaziy Osiyoda xavfsizlik, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, O‘zbekiston Respublikasida odam savdosiga qarshi kurash, mintaqada tinchlik, ShHT, MODHT, MDH.

2-topshiriq:Siyosiy xaritada O‘zbekiston geosiyosiy holatini izohlang.



3-topshiriq: O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini dunyo siyosiy xaritasi orqali bayon qiling.



4-topshiriq: O‘zbekistonning SHHT bilan aloqalari bo‘yicha so‘nggi ma’lumotlar raqamlarda ko‘rsating.

5-topshiriq: O‘zbekiston o‘zining joylashuviga ko‘ra Markaziy Osiyoning transport, energetika, kommunikasiya, suv tizimi markazida joylashgan. Bularni xaritada izohlang.



3-amaliy mashg‘ulot: Sohaga oid huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar.

Reja:

- 1.«O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishslashning yangi mexanizmini joriy etish» borasidagi davlat siyosati.
2. Huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi.
3. Mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari:

- «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish» borasidagi davlat siyosati.
- «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilashga oid huquqiy-normativ hujjatlarning mazmun mohiyatini o‘rganish. qabul qilinishi.
- Mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligiga to‘sinq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlarni o‘rganish.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalarga asoslanib yangi pedagogik texnologiyalar: “Aqliy hujum”, “Savol-javob”va “bahs- munozara”, “Davra suhbat” metodlaridan foydalaniadi.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar (tayanch tushunchalarga izoh bering)

1. Har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o‘zida namoyon etib, davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlik kabi muhim jihatlarning ko‘rsatib turuvchi indekatorlar nima?

2. BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkilotining (YUNIDO) “Raqobatbardosh sanoat unumdonligi indeksi”ning faoliyati va mohiyati.

3. Prezidentimizning 2020 yil 2 iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi farmoni ahamiyati nimadan iborat?

xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublikada amalga oshirilgan ishlar nimaklardan iborat?

4. Jahon banki, Birlashgan millatlar tashkiloti, Birlashgan millatlar tashkilotining Taraqqiyot dasturi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Jahon iqtisodiy forumi, Xalqaro byudjet hamkorligi, INSEAD xalqaro biznes-maktabi va Economist Intelligence Unit kabi xalqaro reyting agentliklari va tashkilotlari faoliyatiga izoh bering va ularning O'zbekiston bilan rasmiy aloqalarini izohlab bering.

5. O'zbekistonda Xalqaro reyting va indekslar yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirib boruvchi organ qaysi?

4-amaliy mashg'ulot: O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning eng muhim ko'satkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar.

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasida quyidagi suveren indeks va indikatorlar tizimiga integrasiyalashuv jarayonlari jadallashtirilishi.
2. Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi.
3. Boshqaruv sifati indikatorlari

Amaliy mashg'ulotning maqsadi va vazifalari:

- O'zbekiston Respublikasida quyidagi suveren indeks va indikatorlar ko'rsatkichlarni oshirish uchun tizimiga integrasiyalashuv jarayonlarini jadallashtirish siyosati o'r ganiladi;
- "Biznes yuritish" indeksi va uning mazmun mohiyati;
- Boshqaruv sifati indikatorlari;
- Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi;
- "Korrupsiyani qabul qilish" indeksi;
- "Logistika samaradorligi" indeksi va boshqalar o'r ganiladi.

Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalarga asoslanib yangi pedagogik texnologiyalar: "Savol-javob", "Bahs-

munozara”, “Muammoli vaziyat”, “Klasster”, “Davra suhbati”, “BBB” va boshqa metodlardan foydalilanildi.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 2 iyundagi «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida»gi Farmonining mohiyatini izohlang.

2.

ahon banki, Birlashgan millatlar tashkiloti, Birlashgan millatlar tashkilotining Taraqqiyot dasturi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Jahon iqtisodiy forumi, Xalqaro byudjet hamkorligi, INSEAD xalqaro biznes-maktabi va Economist Intelligence Unit kabi xalqaro reyting agentliklari va tashkilotlari faoliyatini izohlang.

3. So’ngi yillardagi respublikaning iqtisodiy reytinglardagi o‘rmini izohlang.

4. Xalqaro reyting va indekslar dunyodagi institutsional muhitning sifatini baholashdagi roli nimadan iborat.

5-amaliy mashg‘ulot: Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi va Inson kamoloti, Huquq ustuvorligi, Jahon mamlakatlari demokratiyasi, Matbuot erkinligi indekslari O‘zbekistonning o‘rni.

REJA:

1. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi va Inson kamoloti.
2. Jahon mamlakatlari demokratiyasi.
3. Matbuot erkinligi indekslarida O‘zbekistonning o‘rni.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari:

-Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos

xatarlarni tasniflash tizimining maqsad mohiyatini o'rganish;

-Jahon mamlakatlari demokratiyasini tahlil etish;

-Matbuot erkinligi indekslarida O'zbekistonning o'rni o'rgangan holda tahlil etish

Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalarga asoslanib yangi pedagogik texnologiyalar: "Savol-javob", "Bahsmunozara", "Muammoli vaziyat", "Klasster", "Davra suhbati", "BBB" va boshqa metodlardan foydalaniadi.

Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar (tayanch tushunchalar mazmun mohiyatini izohlang):

- 1.“Telekommunikatsiya infratuzilmasi” komponenti
2. Xalqaro aloqalar
3. Geosiyosat, geosiyosiy jarayon
4. SHHT
5. Terrorizm
6. Barqarorlik
- 7.Odam savdos
8. Inson kapitali
- 9.“Biznes yuritish” indeksi
- 10.“Telekommunikatsiya infratuzilmasi” komponenti
- 11.Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari
- 12.“Korrupsiyani qabul qilish” indeksi,
13. “Logistika samaradorligi”indeksi,
14. Jahon bankining Statistik salohiyat indeksi,
15. Iqtisodiy erkinlik indeksi,
16. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqièt tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi,
17. Inson kamoloti indeksi,
- 18.Huquq ustuvorligi indeksi,
19. Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi,
- 20.Matbuot erkinligi indeksi va boshqalar.

V GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Avtokratiya	Davlat boshlig'i cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan boshqaruv. Ushbu tushuncha hozirgi davr lug'atlarida hokimiyatga da'vogarlik qiluvchi shaxs, guruhning cheklanmagan siyosiy hukmronlikka intilishi sifatida ifodalanadi.	An autocracy is a government in which the head of state has unlimited power. In modern dictionaries, this concept is expressed as a person claiming power, a group's desire for unlimited political dominance.
Avtoritarizm	Davlatni boshqarish usullaridan biri. Yakka shaxsning davlatning o'z ta'siri, obro'si, tashkilotchiliqi, shijoati, jamiyatni yaxshi bilimi asosida boshqarishi. Avtoritarizm, odatda, jamiyat o'z taraqqiyoitining murakkab, qaltis va mas'uliyatli davrlarini boshidan kechirayotgan pallalarda saxniga chiqadi. XXasrda avtoritarizm asosan salbiy ma'noda namoyon bo'ldi. Hozirgi darv avtoritarizmiga harbiy-politsiya fashistik tartibotlar "kazarmali kommunizm" shuningdek stalinizm kiradi.	<i>One of the ways of governing the state. The individual is the one who governs the state based on his influence, prestige, organization, enthusiasm, and good knowledge. Authoritarianism usually emerges at a time when society is going through difficult, dangerous and responsible periods of its development. In the twentieth century, authoritarianism has been largely negative. Today's Darwinist authoritarianism includes military-police fascist regimes, "barracks communism," as well as Stalinism.</i>
Agressiya	Bir davlat tomonidan ikkinchi davlatga nisbatan territoriyani qo'lga kiritish, uning mustaqilligini yo'q qilish yoki cheklash, aholisini bo'ysundirish maqsadida har qanday kuch ishlatish, to'g'ridan-to'g'ri	<i>Acquisition of territory by one state in relation to another, the destruction or restriction of its independence, the use of any force to subjugate its</i>

	qurolni agressiya	<i>population, direct aggression</i>
Bozor iqtisodiyoti	Jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui. Bozor iqtisodiyoti mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat a'zolarini ishlab chiqarish va iste'mol orqali doimiy ishtirokchilariga aylantiradi. Shu boisdan bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kun sayin takomillashuviga, mahsulot sifatining yaxshilashib borishiga, miqdorning esa ko'payishiga sababchi bo'ladi.	<i>A set of economic relations that accelerates the development of society. The essence of a market economy is that it turns all members of society into regular participants through production and consumption. Therefore, a market economy allows production to improve day by day, product quality to increase, and quantity to increase.</i>
Vijdon erkinligi	Bu fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" – BMT tomonidan 1948 yilda qabul qilingan xalqaro huquqiy xujjatdir. Bu xujjatda insonlarning huquq va erkinliklari, hayot kechirishini ta'minlaydigan huquq va erkinliklari belgilangan.	<i>This is the right of citizens to believe in any religion or not to believe in any religion. The Universal Declaration of Human Rights is an international legal instrument adopted by the United Nations in 1948. This document defines the rights and freedoms of the people, the rights and freedoms that ensure their livelihood</i>
Global muammolar	Ushbu muammolar o'zining daxshatli oqibatlari, jinoyatga keltiradigan zarari bilan boshqa har qanday muammolardan qisman farq qiladi. Bumuammolarni jamiyat hayotida ro'y beradigan birdan – bir muammoga qiyoslab bo'lmaydi. Ular o'zining ko'lami va miqyoslariga ko'ra dunyoning juda katta qismiga yoyilgan bo'lib, ko'pchilik	<i>These problems are somewhat different from any other problem in that they have dire consequences and damage to crime. These problems cannot be compared to a single problem that occurs in the life of a society. They are spread over a large part of</i>

	mamlakatlar va xalqlar hayotiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.	<i>the world due to their scale and scale, and have a strong negative impact on the lives of many countries and peoples. 'shows</i>
Fedarativ (murakkab)	Davlatlar esa davlatchilikning avtonom (muxtor) davlatlar esa davlatchilikning avtonom (muxtor) shtatlar, hududiy yer birliklari kabi qisimlardan tuzilgan.	<i>States are made up of parts of the state, such as autonomous states, territorial units of state.</i>
Demokratiya	Demokrratiyaning muhim xususiyati shundaki unda xalq hokimiyyati ya'ni ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi qoidasi rasmiy ravishda e'lon qilinadi hamda fuqarolarning erkinligi va teng huquqliligi e'tirof etiladi. Bu shartlar jamiyat hamda uning a'zolari hayotining asosiy qonuniushbu davlatning konstitutsiyasida aks ettiriladi.	<i>An important feature of democracy is that it officially declares the rule of the people, that is, the subordination of the minority to the majority, and recognizes the freedom and equality of citizens. These conditions are reflected in the basic law of society and the life of its members - the constitution of the state.</i>
Integratsiya	Milliy iqtisodiyotdlarning sifat jihatdan yangi sharoitlarga ega bo'lishi va mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida iqtisodiy ravishda birlashishi, bir-biriga o'zaro ta'sir etishi jarayonining kuchayishi. Iqtisodiy integratsiya hamkorlik, iqtisodiy siyosatda ustivor yo'nalish deb ishlab chiqarish rivojlanishni belgilangan mamlakatlar o'rtasida, asosan ishlab chiqarish alohida yuz beradi va bu jarayonni amalga oshirish maqsadida mamlakatlar qator chora tadbirlarni qo'llaydilar integratsiya jarayoni rivojlanishi darajasiga	<i>The process of economic integration and integration of national economies in order to have qualitatively new conditions and expand the country's development potential. Economic integration cooperation is a priority in economic policy between the countries of production development, mainly production occurs separately, and in order to implement this process, countries take a number of measures depending on the</i>

	bog‘liq hamda besh pog‘onaga ajratiladi.	<i>level of development of the integration process and five gardens allocated to the mother.</i>
Impichment	Davlat jinoyatchilarini mansabdar shaxslarni hattoki davlat boshlig‘i—Prezidentini konstitutsiyasida ko‘rsatilgan moddalarni buzganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortish qonun yo‘li bilan mustahkamlangan. Ma’suliyat amalga oshirish qiyin qonunchilik palatasi, ushbu masalani ko‘rib chiqish esa yuqori palataga yuklatilgan.	Prosecution of state criminals and officials, even the head of state, for violating the provisions of the constitution is enshrined in law. The legislature is difficult to account for, and the upper house is left to decide.
Inaguratsiya	Davlat boshlig‘i lavozimiga kirishish oldidan o‘tkaziladigan tantanali marosim. Yangi Prezident va vitse Prezident hokimiyatini tantanali qabul qilish marosimi. Shuningdek haykallarni ko‘rgazmalari ochilishida ham inagurayiyani ifodalaydi.	<i>Ceremony before the inauguration of the President. Ceremony of inauguration of the new President and Vice President. It also symbolizes inauguration at the opening of sculpture exhibitions.</i>
Korrupsiya	Korrupsiya – (lotincha “corruptio”- poraga sotish, aynish, tanazzul) – mansabdar shaxsning boyish maqsadida o‘z mansabi bilan bog‘liq huquqlarni suiste’mol qilishdan iborat jinoyat. Korrupsiya eng qadimiy jamiyatlardan biri: Qayerda davlat bo‘lsa, davlat apparatining turli tarmoqlarida, pastdan yuqorigacha, korrupsiya butun jahonga yoyilgan jinoyatlardan biridir.	<i>A crime of abuse of office rights by an official for the purpose of enrichment. Corruption is one of the oldest societies: Wherever there is a state, corruption is one of the most widespread crimes in various sectors of the state apparatus, from the bottom up.</i>
Lobbizm	Lobbizm – Qonuniyat organida faoliyat ko‘rsatuvchi yirik monopoliyalar agentligi yoki tashkiliy guruh bo‘lib ular	<i>Lobbying - a large monopoly agency or organizational group operating in the legislature,</i>

	manfatlarni ifoda etgan qonunlarni, zakazlarini, yordamga beriladigan mablag‘ni (subsidiyani) olish yo‘lida qonun chiqaruvchilarni majburlash (kerak bo‘lsa sotib olishi) yo‘lini tutuvchi tushuncha.	<i>which does not force lawmakers to buy (if necessary) laws, orders, aid (subsidies) that represent their interests. the concept that holds the line.</i>
Mentalitet	Mentalitet – (lotincha “mens” – aql, idrok) – jamiyat, millat, birlik yoki alohida shaxsning alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muhim ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati, jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti uning o‘ziga xos an’analari, rasm-rusmlari, urf-odatlari, diniy e’tiqod va irimlarini ham qamrab oladi.	<i>Mentality - (Latin "mens" - mind, perception) - the level of thinking of a society, nation, unit or individual, the spiritual potential of the individual, their ability to analyze the laws of life, mental ability formed in important social conditions, mental strength , the mentality of a society, nation, or individual also includes its specific traditions, customs, traditions, religious beliefs, and superstitions.</i>

VI. FOYDANILADIGAN ADABIYOTLAR.

Rahbariy adabiyotlar:

- Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi
1. bosqichga ko‘taramiz. T. 1. – Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
 2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
 3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
 4. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
 5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
 6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
 7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
 8. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024.

Asosiy adabiyotlar:

1. R.H.Murtazayeva O‘zbekistonda millatlararo munosabatlari va tolerantlik. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
2. R.H.Murtazayeva, A.A.Yermetov, A.A.Odilov va boshq. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. – Toshkent, 2024.
3. A.S.Sagdullayev umumiyligi tahriri ositida. O‘zbekiston tarixi. 1-jild. Darslik. – Toshkent: NIF MSH. 2024.
4. B.J.Eshov, A.A. Odilov. O‘zbekiston tarixi. 2-jild. Darslik. – Toshkent: NIF MSH. 2024.
5. Саипова К.Д. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие). – Ташкент: NIF MSH, 2024.

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar). 2 tom. Mas’ul muharrirlar: Abdullayev R., Rajabov Q., Rahimov M. Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
2. Tulyakov E. Taraqqiyot strategiyasi markazi materiallari asosida. 2020.
3. Xoliquulova H.Yu. Mustaqillik yillarda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy,

- ma’naviy-madaniy taraqqiyoti. (O‘quv qo‘llanma). – Jizzax, 2020.
- 4. O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir Murtazayeva R.H. Darslik. – Toshkent, 2020.
 - 5. To‘xtaboyeva D.T. O‘zbekistonning eng yangi tarixi: ma’naviy yangilanish, madaniy taraqqiyot va ijtimoiy o‘zgarishlar. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2021.
 - 6. Yangi O‘zbekistonning iste’dodli yoshlari, Ilmiy ishlar to‘plami, Ikkinchi kitob. – Toshkent: Ta’lim nashriyoti, 2021.
 - 7. Oblamurodov N. Tolipov F. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022.
 - 8. Insopov A.A. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllanishi va rivojlanish tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Universitet. 2023.
 - 9. Alimardonov O.Q. O‘zbekistonning eng yangi tarixi: tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: FAST SUPPORT AND RESULT, 2023.
 - 10. Дорошенко Т.И. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие). – Ташкент: Metodist nashriyoti, 2023.
 - 11. Иноярова Д.М. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие для вечерних отделений). – Ташкент: Metodist nashriyoti, 2023.

Elektron ta’lim resurslari

- 1. www.ziyonet.uz
- 2. www.edu.uz
- 3. www.google.uz
- 4. www.gov.uz

